

Ўз уйингни
ўзинг асра,
ўз юртингни
ўзинг ҳимоя
қил!

Ислом КАРИМОВ



Мажбурий
берил нусха №

Ma'rifat

ENLIGHTENMENT • XALQ ZIYOLILARI GAZETASI • معرفت

1931-yildan chiqa boshlagan 2010-yil 15-dekabr, chorshanba № 99 (8332) ISSN 2010-6416

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ИСЛОМ КАРИМОВНИНГ КОЛЛЕКТИВ ХАВФСИЗЛИК ШАРТНОМАСИ ТАШКИЛОТИ (ОДКБ) КОЛЛЕКТИВ ХАВФСИЗЛИК КЕНГАШИНИНГ МАЖЛИСИДА СЎЗЛАГАН НУТҚИ

Аввал хабар қилинганидек, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримов 10 декабрь куни Москва шаҳрида бўлиб ўтган Коллектив хавфсизлик шартномаси ташкилоти (ОДКБ) Коллектив хавфсизлик кенгашининг мажлисида иштирок этди ва нутқ сўзлади.

Куйида ана шу нутқ матни чоп этилмоқда.

Мухтарам давлат раҳбарлари.

Сизларни қутлашга ва Россия томонига, Россия Президенти Дмитрий Анатольевич Медведевга самимий қабул ва аънанавий меҳмондўстлик учун миннатдорлик изҳор этишга ижозат бергайсизлар.

Бугунги саммит кун тартибидаги асосий масала — ОДКБ коллектив хавфсизлик тизимини янада такомиллаштиришдир.

Биз ОДКБ қарорларининг самарадорлиги ва уларнинг тезкорлик билан қабул қилинишини таъминлаш, Ташкилотнинг можароли вазиятларга самарали муносабат билдириш имкониятларини мустаҳкамлаш борасидаги ташаббусларни асосли ҳамда ўз вақтида илгари сурилган, деб ҳисоблаймиз.

Шу билан бирга, Ўзбекистоннинг бу борадаги қатъий позициясини яна бир бор алоҳида таъкидламоқчиман: ОДКБнинг вазифаси — бу, ОДКБ давлатлари ўртасидаги ва МДХ маконидаги турли қарама-қаршилиқлар ва можароларни ҳал этишда қатнашиш эмас, балки, аввало, Ташкилотга аъзо мамлакатларни ташқи таҳдидлардан ҳимоя қилишдан иборатдир.

Биз, шунингдек, ОДКБга аъзо у ёки бу давлатлар ичида «зўравонлик хатти-ҳаракатлари» юзга келган ҳолларда унга Ташкилотнинг аралашуви ёхуд таъсир кўрсатишига асло йўл қўймаслик зарур, деб ҳисоблаймиз. Бизнинг принципиал позициямиз шундан иборат ва Тезкор ҳаракатланувчи коллек-

тив кучлар тўғрисидаги битимни имзоламаганимизнинг сабаби ҳам шунда.

Бунда у ёки бу мамлакат ичидаги «зўравонлик хатти-ҳаракатлари» турли сценарийлар бўйича, ташқи кучларнинг бевосита аралашуви ва молиялаштируви орқали юзга келиши мумкинлигини эътиборга олиш даркор.

Шу боис «зўравонлик хатти-ҳаракатлари»нинг ҳақиқий ташкилотчиларини аниқлаб олиш зарур. Шундан кейингина муайян қарор қабул қилиш мумкин.

Жорий йил 10—14 июнь кунлари Қирғизистон жанубида рўй берган воқеалар барчамиз учун кўп жиҳатдан сабоқ бўлиши керак. Ушбу воқеалар мамлакат ичидаги қарама-қаршилиқлар ва можароли вазиятларнинг ҳақиқий сабабини синчковлик билан ўрганмасдан, бу жараёнларга аралашуш қандай оқибатларга олиб келиши мумкинлигини ҳар томонлама ўйлашдан, уларни ҳал этиш учун Ташкилотнинг аралашуви мутлақо йўл қўйиб бўлмаслигини яна бир бор кўрсатди.

11—12 июнь кунлари ўзбек миллатига мансуб 100 мингдан зиёд қочқинлар, авваламбор, ёрдамга муҳтож хотин-қизлар, болалар ва қариялар Қирғизистоннинг Ўш ва Жалолобод вилоятларида рўй берган миллатлараро хунрезликлардан қочиб, Ўзбекистоннинг Фарғона водийсидаги чегарасини кесиб ўтди.

Мен ҳозир бу одамларни жойлаштириш, озиқ-овқат билан таъминлаш, чегара ҳудудида тартибни сақлаш ва

улар ўзини ҳимояланган деб ҳис қилиши учун зарур шарт-шароит яратиш борасида юзга келган улкан муаммолар, бунинг учун сарф этилган ресурс ва маблағлар ҳақида гапириб ўтирмайман.

Бу одамлар чегарадан ўз хоҳиши билан ёки Қирғизистон жанубида яшаш ёқмагани учун ўтгани йўқ. Улар у ерда юз йиллар мобайнида қирғизлар билан ёнма-ён яшаб келган ва бундан кейин ҳам яшайди. Бунга бизнинг ҳам, Қирғизистон Президенти Роза Отунбоевнинг ҳам ишончи комил. Қирғизистон жанубида ҳамон сақланиб турган кескин вазиятдан чиқишнинг йўли шундан иборат эканига ишонаман.

Агар аҳолимиз ўртасида осойишталикни сақлай олмаганимизда ва турли ғайриқонуний хатти-ҳаракатлар содир этилишининг олдини олмаганимизда Ўзбекистоннинг қарийб 300 минг қирғиз миллатига мансуб аҳоли яшайдиган Фарғона водийси ҳудудида қандай фожiali воқеалар рўй бериши мумкинлиги ҳақида гапирмасам ҳам бўлади.

Роза Отунбоева ташаббусига бинан 11 июнь эрта тонгда мен у билан телефон орқали узоқ гаплашдим. Шунда мен уни ҳар қандай ҳолатда ҳам биз томондан бирорта ҳам одам Қирғизистон чегарасидан ўтмайди, деб ишонтирдим ва ўз сўзимнинг устидан чиқдим.

Ўш Андижон шаҳридан узоғи билан 40 километр, чегарадан эса бор-йўғи 15 километр масофада жойлашган. Агар ушбу қалтис пайтда вазиятни назоратда сақлаб турмаганимизда, Қирғизистон жанубидаги миллатлараро қарама-қаршилиқ Ўзбекистон ва Қирғизистон ўртасидаги давлатлараро қарама-қаршилиқка айланиб кетган бўлур эди.

Бошқача айтганда, Қирғизистон жанубида рўй берган қонли воқеалар оқибатларини олдиндан айтиш қийин

бўлган улкан фожиага айланиб кетиши ҳеч гап эмасди.

Ушбу қонли воқеаларнинг сабаби нимада, уларнинг буюртмачилари, ташкилотчилари ва ижрочилари кимлар экани — бу алоҳида масала.

Сизларнинг эътиборингизни қуйидаги масалага яна бир бор қаратмоқчиман. Агар битта бўлса ҳам ҳарбий хизматчи, Ўзбекистон, Қозоғистон ёки Россия ҳарбий хизматчиси бўлишидан қатъи назар, Қирғизистон чегарасидан ўтганида, бу кейинчалик жиловлаш қийин бўлган катта можарога олиб келиши мумкин эди.

МДХ ҳудудида бунга мисоллар кўп. Масалан, Арманистон ва Озарбойжон 20 йилдан ортиқ вақт мобайнида ўзаро мақбул бўлган келишувга эриша олмаётир. Можаро рўй берган дастлабки йиллардаёқ унинг ёйилиб кетишига йўл қўймаслик керак эди. Эҳтимол, шунда томонлар бугун юзга келган вазиятни бартараф этиб, ўзаро муроСага келган бўлар эди.

Мен бу мисолларни ҳар бир алоҳида вазиятда биз «зўравонлик хатти-ҳаракатлари» деб атаётган воқеаларнинг ҳақиқий сабабларини ниҳоятда жиддий ўрганиб чиқиш кераклигининг далили сифатида келтирмоқдаман.

Айнан шу сабабли Ўзбекистон можароли вазиятларга ОДКБ муносабат билдириши тартиби тўғрисидаги Низомни имзоламаётир.

Биз, шунингдек, ОДКБнинг тинчликпарвар кучлари тўғрисидаги баёнотни ҳам имзоламаймиз. Бизнинг қароримизнинг моҳияти шундан иборатки, бундай тинчликпарвар кучларда иштирок этиш ҳар доим ихтиёрий хусусиятга эга бўлган ва Ўзбекистон ўз ҳудудидан ташқаридаги тинчлик ўрнатиш операцияларида иштирок этмайди.

Эътиборингиз учун ташаккур.

ДИҚҚАТ, ОБУНА!

“Ma'rifat” газетасига
2011 йил учун обуна
бошланди.

Азиз муштарийлар!
“Ma'rifat” саҳифалари
орқали таълим-тарбия
соҳасида амалга
ошириладиган ислохотлар
натижалари, тизимда
олиб бориладиган кенг
кўламли янгиликлар,
ўқитувчилар фаолиятини,
бевосита таълим-тарбия
самарадорлигини янада
оширишга йўналиштириш
мақсадида ишлаб чиқилган
янги мевдрий-
ҳуқуқий, методик ҳужжатлар
билан тезкор
равишда хабардор бўлишни
истасангиз,
ушбу нашрга 2011 йил учун
обуна бўлинг.
Обунали “Матбуот
тарқатувчи” ҳамда
“Ўзбекистон
почтаси” акциядорлик
компанияларининг жойлардаги
бўлимларида амалга
оширишингиз мумкин.

Нашр кўрсаткичи — 150.

ЮРТГА МЕХР ТАЪТИ



2-бетга қаранг

ГАЗЕТАНИ
ВАРАҚЛАГАНДА:

ДУНЁГА
БҮЙЛАЁТГАН
ТАЪЛИМ

3-бет

МАКТАБДА
ТАНАФФУС

У НИМАГА ХИЗМАТ
ҚИЛИШ КЕРАК?

5-бет

ТЕСТ ТУЗИШНИ
БИЛАСИЗМИ?

8—9-бетлар

УЧРАШУВЛАР ҚИЗГИН БАҲСЛАРГА БОЙ БЎЛДИ

ЎзЛиДеП партиясидан Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасига сайланган Гулжан Халмуратова ва Полат Реймов Шуманай, Кўнғирот ва Қонликўл туманларида аҳоли билан учрашувлар ўтказди.

Учрашувларда туман ҳокимлиги, тадбиркор ва фермерлар, бошланғич партия ташкилотлари раислари ва партия фаоллари қатнашди. Уларда Президентимиз И.Каримовнинг 2010 йил 12 ноябрдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги «Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси»га доир маърузасининг мазмун-моҳияти ва 2011 йилнинг «Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йили» деб белгилангани ва ушбу йилда ЎзЛиДеП электроратининг олдида турган долзарб вазифалар ҳақида фикр алмашилди. Бундан ташқари, мажлисларда Шуманай туманида йўл-транспорт, коммунал масалалари, аҳолининг бандлигини таъминлаш, айниқса, ёшларимиз орасида ишсизлик муаммосини бартараф этиш ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилишга доир таклиф ва мулоҳазалар ўртага ташланди.

Учрашув якунида мавжуд муаммоларни ҳал этиш юзасидан чора-тадбирлар ишлаб чиқиш ва амалга оширишга келишиб олинди.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
«Ma'rifat» мухбири

Оқдарё педагогика ҳамда иқтисодиёт коллежида Самарқанд вилоятидан Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарига сайланган депутатлар билан сайловчиларнинг учрашуви бўлиб ўтди.

Сўзга чиққан Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси депутатлари Мажидхон Усмонов, Худойберди Аъзамов ҳамда Сенат аъзоси Фармон Тошев Юртбошимизнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги «Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси» мавзусида давлат ҳокимияти ва бошқарувини демократлаштириш, мамлакатимиз суд-ҳуқуқ тизимини, оммавий ахборот воситалари соҳасини ислох қилиш, сайлов қонунчилигини, фуқаролик жамияти институтларини ривожлантириш, иқтисодиётни либераллаштириш бўйича белгиланган йўналишларга тўхталдилар. Шунингдек, мамлакатимизда ёшларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, уларни баркамол этиб тарбиялашнинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлашга қаратилаётган эътибор, Президентимиз томонидан 2011 йилнинг «Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йили» деб эълон қилинишининг мазмун-моҳияти ҳақида сўз юритилди.

— Тадбирда ёшларга Юртбошимиз томонидан белгилаб берилган демократик ислохотларни чуқурлаштириш, фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясининг мақсади, вазифалари, бугунги кунда хорижий мамлакатлар эътироф этаётган «Ўзбек модели» деб номланувчи тараққиёт йўлининг қанчалик ўзини оқлаганлиги ҳақидаги тушунчаларни етказишга ҳаракат қилдик, — дейди Х.Аъзамов. — Шунингдек, қонун ижодкорлари олдидаги муҳим масалалар, янги қонунлар ишлаб чиқиш, уларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритишдаги илғор тажрибаларимизни ўртоқлашдик. Республикаимизда соғлиқни сақлаш, атроф-муҳит муҳофазаси, ёшларга берилаётган экологик билим ва маданиятни ривожлантириш бўйича муҳим давлат дастурлари ҳамда қонунларнинг жорий этилиши хусусидаги фикрларимизни баён этдик.

Учрашув давомида депутатлар ёшларни қизиқтирган саволларга батафсил жавоб бердилар.

Ҳаким ЖЎРАЕВ,
«Ma'rifat» мухбири

Ангор туман ҳокимиятининг мажлислар залида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси депутати Қувондиқ Ҳамзаев билан учрашув ўтказилди.

Депутат Президентимиз Ислам Каримовнинг «Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси» деб номланган маърузасида илгари сурилган ташаббусларга алоҳида тўхталди. Мамлакатимизда бу борада қилинаётган ишлар ва галдаги вазифалар билан йиғилганларни таништирди.

Халқ депутатлари, туман кенгаши депутатлари, ташкилот, муассаса, корхона раҳбарлари, қишлоқ фуқаролар йиғини раислари, маҳалла фаоллари иштирок этган мажлисда 34-мактаб директори Чори Ҳамроев, 4-мактаб директори Нарзулла Ҳайитов, «Янгиобод» қишлоқ фуқаролар йиғини раиси Нарзулла Қўнғиротов сўзга чиқиб, ҳудудлардаги мавжуд муаммолар ҳамда уларни бартараф этиш юзасидан аниқ таклиф ва фикрларини билдирди.

Норқувват ТЎРАЕВ,
«Ma'rifat» мухбири



Бугун барча таълим муассасаларида уюшқоқлик билан ўтказилаётган декабрь — Миллий ғоя туркумидаги фанлар ойлигида ўқувчилар қалбида она-юртга садоқат, улуғ аجدодларимиздан фахрланиш, миллий ва умминсоний қадриятларга ҳурмат туйғусини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Айниқса, бу жараёнда бошланғич таълим ўқитувчиларининг фаолликлари яққол кўзга ташланаётганлиги аҳамиятлидир.

Пойтахтимиздаги 279-мактабда бўлиб ўтган очик дарслар фестивалида ҳам ана шундай ўзига хосликнинг гувоҳи бўлдик. Мактабнинг бошланғич таълим ўқитувчилари Дилдора Носирова, Осие Мамажонова, Бузайнаб Бузрукова томонидан ўтилган «От ясовчи қўшимчалар», «Боболаримиз — фахримиз», «Соғлигим — туман бойлигим» мавзуларидаги ҳар бир машғулотда миллий қадриятлар, юрт ва ватан меҳри, истиклолимизнинг тақдиримизда тугган ўрни каби улуғвор ғоялар дарс сабоқларига уйғун ҳолда теран тушунтирилмоқда.

Осие Мамажонова томонидан ўтилган мустаҳкамлаш дарсида гуруҳлар томонидан ижро этилган халқ оғзаки ижоди намуналари асо-

сида миллий қадриятларимизнинг юксак намуналарини ўзида мужассам этган сахна кўринишлари, лапарлар катта таассурот уйғотди.

— Мактабимизда 9 нафар бошланғич таълим ўқитувчиси фаолият юритаётган бўлса, барча муаллимлар фан ойликларини самарали ташкил этишда ташаббускор, десам хато бўлмайти, — дейди бошланғич синф методбирлашмаси раҳбари Дилдора Носирова.

Шу ўринда таъкидлаш лозимки, мактабда шакланган ибратли анъанага мувофиқ ушбу фан ойлиги давомида ҳар бир фан ўқитувчиси миллий ғоя туркумига кирувчи фанлар билан интеграциялашган ҳолда 1 соатлик очик дарс ва 1 соатлик дарсдан ташқари машғулот ташкил этиб бериши белгилаб қўйилди.

— Фан ойлигини самарали ташкил этиш мақсадида режа асосида барча синфлар учун ахборот-ресурс марказимизда видеодарс ўтилаётгани ҳам ўқувчиларнинг мазкур фанга бўлган қизиқишини янада оширмоқда, — дейди мактабнинг Миллий ғоя ва маънавият асослари фани ўқитувчиси Феруза Мирбаратова.

Бурхон РИЗОҚУЛОВ
олган сурат

“БИЗ ДУНЁНИ ЧИЗАМИЗ”

Сергели туманидаги 300-давлат ихтисослаштирилган умумтаълим мактаби математика ҳамда табиёт фанларига ихтисослаштирилган бўлиб, 8та 2—3-синфларда ушбу фанлар чуқурлаштириб ўқитилади. Таълим даргоҳида бошланғич синфлар доирасида очик дарслар, беллашувлар, учрашувлар, кичик фан олимпиадалари ва бошқа шу каби тадбирлар доимий равишда ўтказилиб туради.

Жумладан, яқинда ташкил этилган “Хуснихат”, “Болалар бадий қўл меҳнати” ҳамда “Биз дунёни чизамиз” деб номланган кўргазмалар ҳам ана шулар сирасидандир. Бу каби тадбирларнинг ташкил этилаётганлиги ўқувчиларнинг илм олишга қизиқишлари ортишига хизмат қилаётди. Болаларнинг қалам тутган жажжи қўлчалари устозлари кўмагида оқ коғозга ёшларга хос, бир-бирдан ажойиб тасвирлар туширмоқда, чиройли ёзувларни акс эттирмоқда. Ака-опаларига ўхшаб сўзлар



ёза олиш, расмлар чизиш уларга бир олам сурур бахш этаётгани шубҳасиз.

Мактабнинг бошланғич синфлар услубий бирлашмасида айни пайтда 47 нафар малакали педагог болажонларга таълим-тарбия бермоқда. Таълим масканида таҳсил олаётган бошланғич синф ўқувчиларининг сони 1080 нафарни ташкил қилади. Уларга дастлабки сабоқларни ўргатаётган 10 нафар олий тоифали, 13 нафар I тоифали, 16 нафар II тоифали ҳамда 8 нафар мутахассис ўқитувчидан иборат педагоглар жамоаси энг янги, илғор ва самарали усуллардан фойдаланиб дарс ўтмоқда. Дарс жараёнида замонавий педтехнологияларни кенг қўллаш, мультимедиа дарсларини ташкил қилишда, айниқса, Т.Пўлатова, Е.Аюпова, И.Мадалиева ва бошқа қатор ўқитувчилар бошқаларга ўрнак бўлаётди.

МУХБИРИМИЗ
Владимир ГРАНКИН
олган суратлар.



Ўзбекистон халқ шоири ЖУМАНИЁЗ ЖАББОРОВ



ри", "Этиқод" каби шеърӣ китоблари, долзарб мавзулардаги драматик асарлари, жаҳон мумтоз адабиётининг энг сара намуналаридан қилган бадиий таржималари билан адабиётимизда муносиб ўрин эгаллади. Айниқса, истиқлол йилларида Ватанимизнинг мустақиллигини, халқимизнинг озод ва эркин ҳаётини, инсон қадр-қимматини тараннум этувчи бадиий юксак шеър ва қўшиқлари, бунёдкор замондошларимизнинг фидокорона меҳнати, юртимиздаги улкан ислоҳот ва ўзгаришлар ҳақидаги публицистик мақолалари билан кўпчиликнинг эътиборини қозонди.

Ж.Жабборов тажрибали адиб, жонқуяр ташкилотчи сифатида жамоат ишларида ҳам фаол иштирок этиб, халқимиз ўртасида миллий ғоямиз тамойилларини кенг тарғиб этиш, ёшларни она юртга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялашда жонбозлик кўрсатди. Кўп йиллар давомида Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасида адабий маслаҳатчи сифатида фаолият юритиб, ўнлаб ёш истеъдод эгалларига устозлик қилди.

Жуманиёз Жабборовнинг ўзбек адабиётини ривожлантириш борасидаги хизматлари давлатимиз томонидан муносиб тақдирланган. У "Ўзбекистон Республикаси санъат арбоби" ва "Ўзбекистон халқ шоири" фахрий унвонлари, шунингдек, бир қатор орден ва медаллар билан мукофотланган.

Атоқли шоир, меҳрибон устоз, камтарин ва самимий инсон Жуманиёз Жабборовнинг хотираси қалбларимизда ҳамisha сақланиб қолади.

**И.КАРИМОВ, И.СОБИРОВ, Д.ТОШМУХАМЕДОВА,
Ш.МИРЗИЁЕВ, А.АРИПОВ, Х.СУЛТОНОВ,
А.ОРИПОВ, Б.АЛИМОВ, Ё.АХМЕДОВ**

Мактаб остонасидан кирар экансиз, ёзувчи ижоди ҳамда ҳаётига оид ишлар, рефератлар, фото кўргазмалар, адибнинг ижод жараёнидаги лавҳалар келган меҳмонларга ажиб бир кўтаринки кайфият улашарди. С.Раҳимов туманидаги 196-мактабда Ўзбекистон халқ ёзувчиси Саид Аҳмад таваллудининг 90 йиллиги муносабати билан «Адиб асарлари мактаб саҳнасида» деб номланган тадбир ана шундай ижодкорлик билан бошланди.

— Ушбу тадбирдан кўзланган мақсад эса ўқувчиларни бадиий адабиётга ошно қилиш ҳамда яхши асарлар орқали ҳаётимизда учраб турадиган баъзи салбий иллатларнинг олдини олишга қаратилган, — дейди мазкур мактаб директори Саидахмад Обидов.

Сўнгра сўз олган туман ХТБ она тили ва адабиёт фанлари методисти Ноиба Солиҳова адибнинг асарларидаги ҳаётӣ воқеликлар, ижод намуналаридаги кечинмалар тўғрисидаги ўз фикрларини баён этди. Адибнинг қизи Нодира Хусанхўжаева эса отаси ҳақидаги кўплаб хотиралари, хусусан, «Келинлар кўзғолони» спектаклининг яратилиш тарихига оид маълумотларни йиғилганларга сўзлаб берди. Шундан сўнг мактаблардан ташриф буюрган драма тўғраги аъзоларининг чиқишлари намойиш этилди. Унда адиб асарларидан қизиқарли парчалар ўқувчилар томонидан ижро этилди. Ўқувчиларнинг ижодӣ ишлари бевосита ҳакамлар ҳайъати томонидан баҳолаб борилди.

Тадбир якунида 111-мактаб ўқувчилари 1-ўринга лойиқ деб топилди.

**Анвар ҚОБИЛОВ
Б.РИЗОКУЛОВ олган сурат.**



Президентимиз ташаббуси билан мамлакатимиз таълим тизимида амалга оширилган ислоҳотлар янги-янги натижалари билан ҳаётимизда намойн бўлмоқда. Масалан, сўнгги йилларда Ватанимиз пойтахти Тошкентда жаҳоннинг бир қатор нуфузли олий таълим марказларининг филиаллари ташкил этилди. Ушбу таълим муассасалари тараққиётимизнинг стратегик дастурларидан бири бўлган Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида белгиланган улкан вазифалар ва мақсадлар ижросига муносиб ҳисса қўшиб, юртимиздаги олий таълимни энг илғор халқаро андозалар даражасига олиб чиқишга хизмат қилмоқда.

Ҳа, Ўзбекистон таълими дунё билан бўйлашмоқда.



хўжалик қурилиши, архитектура, саноатда ахборот технологиялари ва автоматлаштирилган бошқарув тизими, энергетика йўналишларида ёшларимизга таълим берилади. Бу

кетбол, волейбол майдонлари мавжуд. Талабалар кураш, самбо, дзюдо, энгил атлетика, сузиш машқлари ва спортнинг яна бошқа бир қатор турлари билан шуғулланишлари учун

ДУНЁГА БЎЙЛАЁТГАН ТАЪЛИМ

Президентимизнинг 2009 йил 27 апрелдаги Фармонида биноан республикамиз пойтахтида Турин политехника университети (ТПУ) ташкил этилганлиги ҳам худди шу маънода алоҳида диққатга сазовордир.

Юртбошимиз Мустақиллигимизнинг ўн тўққиз йиллиги байрами арафасида ана шу олий таълим даргоҳига ташриф буюрган чоғида, бу олий ўқув юртининг юртимиз таълим тизимида тутақ муҳим ўрнини юксак баҳолаб, шундай деди:

«Тошкентда Турин политехника университетининг очилиши эртанги кунимиз сари қўйилган яна бир муҳим қадамдир. Бу даргоҳдан машина-созликнинг етук мутахассислари, айни пайтда, қатор бошқа муҳим соҳаларда ўз касбининг моҳир усталари бўлган замонавий кадрлар етишиб чиқади.

Давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, Ўзбекистонда замонавий олий ўқув юртлиари кўп. Лекин бу даргоҳ рейтинг жиҳатдан Италияда биринчи ва Европада еттинчи ўринда турадиган Турин политехника университети стандартлари бўйича таълим берадиган ўзига хос ягона таълим масканидир.

Президентимиз яқинда мамлакатимиз Конституцияси қабул қилинганнинг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасида ҳам ушбу олий таълим муассасасининг Ватанимиз таълим тизимидаги юқори нуфузини яна бир бор таъкидлаб, шундай фикрларни айтдилар: «Жорий йилда Тошкент шаҳрида Турин политехника университетининг янги, замонавий ўқув комплексининг барпо этилгани биз учун қанчалик катта аҳамиятга эга эканини алоҳида таъкидлашни истардим. Ушбу олий ўқув юрти мамлакатимизда жадал ривожланиб бораётган автомобиль саноати ва бошқа тармоқлар учун юқори малакали кадрлар тайёрлайдиган маскан бўлиб хизмат қилади».

Ҳа, Турин политехника университетида машинасозлик технологиялари, саноат ва

ерда йирик технопарк ҳам ташкил этилган. Технопарк талабаларнинг назарий ва амалий билимларини уйғунлаштиради, уларнинг кўникма ва тажрибаларини оширади. Бундан ташқари, университет факультетлари қошида ихтисослашти-

рилган олишиши учун барча шарт-шароитлар муҳайё.

Хозирги кунда университет факультетларининг иккинчи босқичида 200 нафардан кўпроқ йигит-қиз ўқимоқда.

— Мен энергетиклар оила-

сида туғилиб-ўсганим учун шу соҳага болаликдан муҳаббат қўйдим, — дейди биз билан суҳбатда биринчи босқич талабаси Далира Раҳимжонова. — Шу боис Тошкент давлат техника университети қошидаги академик лицейни битиргач, ҳеч иккиланмасдан Турин политехника университетига ҳужжат топширдим, имтиҳонлардан муваффақиятли ўтиб, ўқишга қабул қилдим. Бу ерда таълим жаҳон андозаларида ташкил этилган. Ҳар томонлама чуқур билан олишиши учун барча шарт-шароитлар муҳайё.

Президентимиз биз ёшларга яратётган бундай имкониятларга жавобан, энг аъло даражаларда ўқишимиз, Ватанимиз қудрати ва шон-шухратини оширадиган мутахассис кадрлар бўлиб етишмоғимиз керак.

Юртимизда келажақда қайта тикланувчи Қуёш, сув, шамол каби табиий электр манбаларидан кенг фойдаланиш бўйича илмий иш билан шуғулланиш орзусидаман.


Самарқанд вилоятининг Пайариқ туманидан келиб, ушбу олий таълим даргоҳининг «Машинасозлик технологияси» факультетида ўқишга кирган Зафар Исмоилов шундай деди:

— Университетимизда дунё машинасозлиги тажрибалари кенг ва чуқур ўргатилади. Шахсан мен келажақда ҳар жиҳатдан ўта тежамкор, хавф-хатарсиз, юқори экологик талабларга жавоб берадиган технологияларни яратишни ўзимга мақсад қилганман. Бу мақсадга эришиш учун бор куч-ғайратимни, билим-малакамни ишга соламан.

Университет ёшларининг бундай орзу-интилишларини эшитиб, Ўзбекистон келажаги ишончли қўлларда эканлигига амин бўламан.

**Михли САФАРОВ,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист**

Milliy dastur — amalda



риклан, замонавий асбоб-ускуна ва қурилмалар билан жиҳозланган лабораториялар ҳам талабалар ихтиёрида. Технопарк ва лабораториядаги барча жиҳозлар Германия, Швейцария, Швеция, Япония, Жанубий Кореяда қурилган.

Университетда назарий ва амалий билимларни уйғунлаштириб, пухта эгаллаган талабалар ўқишни тамомлагач, Асакадаги «Женерал моторс Ўзбекистан» заводида, Тошкент вилоятида қурилатган «Жиэм-Поуртрейн Ўзбекистан» мотор заводида, «СамАвто», «МАНавто-Ўзбекистан» корхоналарида, машинасозликка ихтисослаштирилган маҳаллийлаштирилган корхоналарда, «ТТЗ», «Технолог» очик акциядорлик жамиятларида, «Ўзэлтехсаноат» уюшмаси корхоналарида ва лойиҳалаштириш институтларида ҳеч бир синовсиз ишлаб кетишлари мумкин.

Университетда дарслар инглиз тилида олиб борилади. Талабаларга ўзбекистонлик ўқитувчилар билан бирга Италиянинг Турин шаҳридан ҳам етакчи мутахассислар келиб сабоқ беришмоқда. Олий ўқув юртида талабалар 4 йиллик бакалаврлик, 2 йиллик магистрлик таълимини олишади.

У ўзига хос шахарча. Бу ерда йирик кутубхона, Ахборот-ресурс маркази, ошхона, спорт мажмуаси, футбол, бас-

✓ ТИНЧ ВА ФАРОВОН ЮРТГА БАЙРАМЛАР ЯРАШАДИ. КОНСТИТУЦИЯМИЗНИНГ 18 ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАБ, ВАТАНИМИЗНИНГ ҲАР БИР ГЎШАСИДА БАЙРАМ ШОДИЕНАЛАРИ ТАШКИЛ ЭТИЛДИ.

Ушбу байрам Чирчиқ шаҳридаги 10-умумтаълим мактабида ҳам кенг нишонланди. Ўқувчилар давлатимиз Қомуси ҳақидаги ўз билимларини, истеъдодларини, ҳуқуқий саводхонликларини намойиш қилишди. Конституциямиздаги моддалар, уларнинг инсон манфаатларини ҳимоялашдаги ўрни ва аҳамиятини фахр билан тилга олдилар. Уларнинг, айниқса, эзгуликни мадҳ этувчи шеърлари, ашула ва рақслари йиғилганларга манзур бўлди.

Наргиза ДОНИЁРОВА,
10-умумтаълим мактаби тарих фани ўқитувчиси

✓ ҚОРАҚАЛПОҚ МУМТОЗ АДАБИЁТИ ВАКИЛИ, БУЮК СЎЗ УСТАСИ, ШОИР БЕРДИМУРОД ҚАРҒАБОЙ ЎҒЛИ БЕРДАҚ ТАВАЛЛУДИ МУНОСАБАТИ БИЛАН ЖОЙЛАРДА ҚАТОР КЕЧАЛАР ТАШКИЛЛАШТИРИЛМОҚДА.

Қорақалпоқ давлат университети қошидаги 1-академик лицейда ўтказилган тадбирда университет журналистика кафедраси бўлими мудири, доцент Давлатбой Бекбавлиев, қорақалпоқ тили ва адабиёти фани ўқитувчиси Қувончбой Уразимбетов, Бердақ музейи раҳбари Шаригул Файзуллаева шоир шеърятининг ўзига хос томонлари, музейда сақланаётган қўлёзма нусхалар ва уларнинг бугунги кунгача етиб келиш тарихи ҳақида тўхталиб ўтишди. Айниқса, Бердақ ҳаёти ва турмуш тарзини ўзида тўла мужассамлаштирган «Бердақ замонаси» сахна кўриниши, куй ва кўшиқлар барчанинг кўнглини хушнуд этди.

Кеча якунида лицей ўқувчилари ўртасида ўтказилган «Халқимиз байтераги» мавзусидаги танлов ғолиблари аниқланиб, уларга қимматбаҳо совғалар топширилди.

Кумар БЕГНИЯЗОВА

Қорақалпоғистон Республикаси.

✓ ЎЗБЕКИСТОН ЭКОЛОГИК ҲАРАКАТИ ВИЛОЯТ КЕНГАШИ ИЖРОИЯ ҚЎМИТАСИ ТОМОНИДАН АНДИЖОН ШАҲРИДАГИ 30-УМУМТАЪЛИМ МАКТАБИДА «ОНАЖОНИМ — ТАБИАТ» МАВЗУСИДАГИ ИНШОЛАР ТАНЛОВИНИНГ ВИЛОЯТ БОСҚИЧИ ЎТҚАЗИЛДИ.

Танлов вилоят халқ таълими бошқармаси, табиатни муҳофаза қилиш қўмитаси, фуқаролик жамиятини ўрганиш институти вилоят минтақавий ахборот техник маркази билан ҳамкорликда ташкил этилди.

Унда танловнинг шаҳар ва туман bosқичида ғолиб чиққан 18 нафар ўқувчи беллашди. Танлов якунига кўра Асака шаҳридаги 8-умумтаълим мактаби ўқувчиси Ҳилола Мухаммадизова 1-ўринга лойиқ топилиб, телевизор ва «Ўзбекистон табиати» китоби билан тақдирланди.

Иккинчи ўринни эса Избоскан туманидаги 8-ихтисослаштирилган санъат мактаб-интернати ўқувчиси Раъно Алижоновна ва Марҳамат туманидаги 10-умумтаълим мактабдан Зулхумор Алимжоновна эгаллади.

Балиқчи, Қўргонтепа, Бўз тумани вакиллари Дилафрўз Абдувахобова, Мубина Қодирова ҳамда Гулсанам Пулатовалар 3-ўринга лойиқ топилдилар.

МУХБИРИМИЗ



✓ БУХОРО ВИЛОЯТИДА «УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЎҚУВ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МАКТАБ РАҲБАРЛАРИ БОШҚАРУВ МАҲОРАТИНИНГ РОЛИ» МАВЗУИДА СЕМИНАР-ТРЕНИНГ БЎЛИБ ЎТДИ.

Шаҳар, туман ХТБ мудирилари, ихтисослаштирилган давлат умумтаълим мактаб-интернатлари ҳамда махсус мактаб-интернатлар раҳбарлари учун ташкил этилган мазкур семинар-тренингда асосан таълим-тарбия самарадорлигини оширишда раҳбарлар бошқарув маҳоратининг аҳамияти ҳақида сўз борди. Шунингдек, синф ва фан хоналарининг жиҳозланиши ва безатилиши, мактабда ўқувчиларнинг ўз-ўзини бошқарув тизимини шакллантириш, ўқитувчилар касбий маҳоратини такомиллаштиришда методик хизматнинг аҳамияти каби бир қатор масалалар электрон, визуал, амалий тақдимотлар орқали иштирокчилар диққатига ҳавола этилди.

Тадбир сўнггида семинар давомида кузатишган жиҳатлар, дарс машғулотлари ва илғор тажрибалар юзасидан атрофлича фикр-мулоҳазалар юритилди ва тегишли тавсиялар берилди.

Сора ТОШЕВА,
«Ma'rifat» мухбири

✓ АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИДА «ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИ БАРПО ЭТИШДА ВА БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ВОЯГА ЕТКАЗИШДА НОДАВЛАТ ВА ЖАМОАТ БИРЛАШМАЛАРИНИНГ РОЛИ» МАВЗУСИДА ХАЛҚАРО ИЛМИЙ АНЖУМАН БЎЛИБ ЎТДИ.

Унда Тошкент, Самарқанд, Навоий, Гулистон, Наманган ва Фарғона вилоятлари олий ўқув юрталарининг ўқитувчи-профессорлари иштирок этишди. Шунингдек, конференцияда Россия, Беларусь, Қозоғистон, Канада, АҚШ билим даргоҳларининг тадқиқотчилари ўзларининг мақолалари билан қатнашди.

Тадбир давомида Ярославль (Россия) давлат университети кафедра мудири, профессор Ирина Албегованинг мавзу доирасида Интернет орқали масофадан қилган маърузаси тингланди.

Шунингдек, конференцияда нодавлат-нотижорат ташкилотларининг фаолияти фуқаролик жамияти шаклланишининг муҳим шартларидан бири экани, баркамол авлодни вояга етказишда ННТларнинг ўрни, уларнинг иш жараёнини такомиллаштириш борасида халқаро тажриба ва юзага келадиган муаммоларни бартараф этиш ҳақида фикр алмашилди.

Конференция якунида анжуман материаллари юртимиздаги олий ўқув юрталари, нодавлат-нотижорат ташкилотлари, сиёсий партиялар ва бошқа кўплаб фуқаролик институтларининг фаолиятида самара келтириши эътироф этилди.

О.СИДДИҚОВ,
«Ma'rifat» мухбири

✓ МАНА БЕШ ЙИЛДИРКИ, ФАРЗАНДЛАРИ, ШУНИНГДЕК, ШАХСИЙ КАМОЛОТИГА, БИЛИМ ВА МАЪРИФИЙ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШГА ВАҚТ АЖРАТА ОЛАДИГАН, ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТЛИ АЁЛЛАРИНИ АНИҚЛАШ ВА ҚўЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ МАҚСАДИДА «ЙИЛ АЁЛИ» АНЪАНАВИЙ МИЛЛИЙ ТАНЛОВИ ЎТҚАЗИБ КЕЛИНМОҚДА.

Яқинда Гулистон шаҳар «Ёшлар маркази»да «Йил аёли - 2010» кўрик-танловининг вилоят bosқичи бўлиб ўтди. Унда шаҳар ва туманларда 1-ўринни эгаллаган 10 нафар фаол аёл иштирок этди. Улардан 6 нафари таълим ходимларидир.

Ҳакамлар ҳайъатининг яқдид қарорига кўра, Ширин шаҳридаги 5-мактабгача таълим муассасаси мудираси Матлуба Раҳмонқуллова «Йил аёли - 2010» танловининг вилоят bosқичи ғолиби деб топилди.

Бойжигит АБДУЛЛАЕВ,
«Ma'rifat» мухбири



Учтепа туманидаги 106-мактабда миллий гоё туркумидаги фанлар ойлиги давомида бошланғич синфлардаги одобнома дарсларига алоҳида эътибор берилмоқда.

Бошланғич синф ўқитувчиси Дилфуза Авазованин 3-«В» синфида ўтказган «Қароғида қадрин асраган элим» деб номланган тадбирда серкуёш Ўзбекистоннинг тарихий шаҳар ва обидалари, жаннатмакон юртнинг сархил мевалари, унумдор тупроғи, Ватан рамзлари ҳақида ўқувчилар бийрон сўзлаб беришди. Машҳура Алиеванин «Нон — азиз неъмат», Маъмура Яйлованин «Ўзбекистон — муқаддас Ватан», Мавлуда Аюпованин «Боболаримиз билан фахрланамиз» мавзусидаги дарсларида ҳам ўқувчиларга Ватанни севмиш, ардоқлаш каби эзгу фазилатлар сингдирилди.

МУХБИРИМИЗ

Суратда одобнома дарсидан лавҳа ахс этган.

Жорий йилнинг 10-11 декабрь кунлари Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университетида «Академик лицей ва касбхунар коллежларида физика, математика ва информатика фанларини ўқитишни такомиллаштириш истиқболлари» мавзусида «Баркамол авлод йили»га бағишлаб VI анъанавий Республика илмий-амалий конференцияси бўлиб ўтди. Анжуманда етакчи олимлар билан бирга республикамизнинг турли ҳудудларидан келган амалиётчи ўқитувчилар ўз маърузалари билан иштирок этди.

Конференциянинг ялпи йиғилишида ТДПУ физика ва уни ўқитиш методикаси кафедраси профессори, педагогика фанлари доктори М.Мамада-

МАҚСАД — ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

зимовнинг «Табиий фанларни гуманитарлаштириш — баркамол авлодни тарбиялаш воситаси сифатида», Тошкент архитектура қурилиш институти қошидаги академик лицей математика фани ўқитувчиси, физика-математика фанлари номзоди, доцент А.Омоновнинг «Академик лицей ва КХКларида алгебра ва математик анализ асослари фанини ўқитиш муаммолари», ТДПУ доценти, педагогика фанлари номзоди Н.Эшпўлатовнинг «Инновацион ёндашувлар асосида бўлажак математика ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини тако-

миллаштириш», ТДПУ доценти, физика-математика фанлари номзоди Д.Юнусованин «Математика ўқитувчисининг инновацион фаолияти» мавзусидаги маърузалари тингланди.

Конференция

Конференциянинг шўба йиғилишларида баркамол авлодни шакллантиришда, комил инсон тарбиясида фанларни гуманитарлаштиришнинг самараси, ҳар бир фанни ўқитиш жараёнида ўқувчилар онгига миллий гоёни сингди-

риш, уларнинг миллий гурурини шакллантиришда тарбиянинг аҳамияти, машғулотларни замонавий илм-фан ютуқларига боғлаб олиб бориш каби долзарб муаммолар хусусида сўз борди. Маърузаларда Миллий дастурни амалга оширишда ўқитувчининг роли, таълим, фан ва ишлаб чиқариш жараёни орасидаги интеграцияни янада ривожлантириш, машғулотларни ЯПТ асосида, ахборот технологияларини қўллаб олиб бориш, машғулотлар самарадорлигини оширишда қўшимча адабиётларни кўпайтириш, жаҳон тажрибасини

ўрганиш каби фикрлар илгари сурилди.

Илмий-амалий конференцияда республикамиздаги янги таълим тури — ўрта махсус, касб-хунар таълимини янада такомиллаштириш ва борада миллий дастурда таъкидланганидек, асосий эътиборни баркамол шахс камолотига, ўқувчиларни мустақил фикрлашга йўналтириш, уларнинг ижодий ва интеллектуал салоҳиятини ошириш, тафаккурини ўстиришга қаратиш лозимлиги алоҳида таъкидланди.

Тадбир якунида конференцияга тавсия этилган маърузаларни икки қисмдан иборат тўғлам шаклида чоп этиб, республикамиздаги таълим муассасаларига тарқатиш режалаштирилди.

Исмоил САЛОМОВ

Танаффус — мактаб ҳаётида ўзига хос аҳамиятга эга вақт. Айни пайтда (у қанчалик қисқа бўлса-да) ҳаёт қайнайди: кимдир уйга берилган топшириқни яна бир бор ёдга олиб, ҳаммадан биринчи бўлиш учун ҳаракат қилса, кимдир партадошидан қўшимча маълумот оляпти. Ўрта қаторда ўтирган қизалоқнинг ҳаёли эрталаб кўрган мультфильми билан банд...

Нихоят навбатдаги ўқув соати учун кўнғироқнинг сеҳрли овози жаранглаб, ҳовлида қувлашмачоқ, аргамчи ва яна ўзлари учун қизиқарли машғуллар билан банд бўлган ўқувчиларни синфга чорлайди...

Бутун дарс давомида бир жойда ўтириш, билимларни мустаҳкамлаш ва олган янги сабоқларини ўзлаштириш ўқувчини жисмонан, руҳан толиқтириши табиий. Бу пайтда чалинган кўнғироқ шубҳасиз навбатдаги дарс учун куч тўплаб олиш, бор диққатини бир жойга жамлашга ёрдам беради. Шунингдек, танаффусда ўқувчилар бир-бири билан мулоқотга киришади, тоза ҳаводан баҳра олиб, фаол ҳаракатда бўлишади. Бу эса уларнинг жисмоний ва руҳий ҳолатига ижобий таъсир кўрсатмасдан қолмайди.

— Бир соат илм-фан билан машғул бўлган киши 15-20 дақиқа дам олиши лозим, дейилади илмий адабиётларда. Ўқувчилар ҳам дарсда 40-45 дақиқа мобайнида билим олиб, илмий фаолият билан машғул бўлади. Шунинг учун уларнинг ҳар соатдан сўнг камидан 10 дақиқа ҳордиқ чиқаришлари маъқул. Кўпчилик умумтаълим мактабларида кичик танаффуслар учун 5 дақиқа, катта танаффуслар учун эса 15-20 дақиқа вақт ажратилади. Бу бир жиҳатдан ушбу мактаблардаги ўқувчилар контингенти билан ҳам боғлиқ. Айниқса, қиш мавсумида айни ҳолат кўпгина таълим муассасаларида кузатилади, — дейди Жиззах вилояти Дўстлик шаҳридаги 1-умумтаълим мактаби ўқитувчиси Шоҳрух Ваққосов. — Ўқувчиларнинг

бор қаратишлари айни муддао. Шунда барча фан кабинетлари навбатдаги соатлар ҳамда синфдан ташқари машғулларда ўқувчиларни қабул қилиб олишга тайёр ҳолга келтирилган бўлади.

Ҳозирги кунда таълим даргоҳларида катта танаффусда ўқувчиларнинг сифатли овқатланишларини ташкил этишга аҳамият қаратилмоқда. Бу билан ўқувчиларнинг саломатлиги ва билим олиш самарадорлигига ўзига хос замин яратилади.

— Мактабимизда биринчи соатдан кейин ўқувчиларнинг тетиклигини инobatга олган ҳолда беш дақиқалик танаффус кўнғироғи чалинади, — дейди Миробод туманидаги 154-мактаб директори Мукаррам Мирхусанова.

Dolzarb mavzu

балки уларнинг маънавий-ахлоқий қиёфасига ҳам салбий таъсир кўрсатаётгани сир эмас.

Шу боис барча педагоглар, хусусан, навбатчи ўқитувчилар танаффусда тартиб-интизомни сақлаш билан бир қаторда ўқувчиларнинг ана шундай ахборотларга берилиб кетмаслигига ҳам эътибор қаратишлари муҳим.

— Илгари мактаб атрофида жойлашган интернет клублари ўқувчилар эътиборини ўзига тартиб турарди. Айрим ўқувчиларнинг катта танаффус тугул, ҳатто кичик танаффусларда ҳам компьютер ўйнашга шошилиши кузатилагани ҳам бор гап, — дейди Тошкент шаҳар ХТББ методисти Замира Азимбоева. — Натихада ўқувчи яна ҳаракатсиз ўтирар, миясини чарчатарди, навбатдаги дарсга кечикиш ҳолатлари ҳам учраб турарди. Шундан келиб чиқиб барча таълим муассасаларида «Мактаб-маҳалла-оила ҳамкорлик дастури» асосида қилинган тадбирлар, ўтказилган тартиб-тушунтириш ишлари ўз самарасини бериб, ўқувчиларнинг танаффус пайтлари интернет клубларига боришларига барҳам берилди. Айни кунларда барча умумтаълим мактабларида оналар мажлислари ташкил этилиб, уларда ўқувчиларнинг танаффусда ва дарсдан бўш вақтларида уяли алоқа воситаларидан фойдаланиш тартиблари муҳокама қилинмоқда.

Танаффусларнинг мактаб маъмурияти томонидан қанчалик тартибли ташкил этилгани унинг самараси шунчалик ортишига олиб келади. Яъни, синф хоналари, коридор ва мактаб ҳовлисида тартиб-интизомни сақлаш, ўқувчиларнинг дарсга кириб-чиқиларини тўғри ташкил қилиш, ҳар бир дақиқадан унумли фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

— Танаффусларнинг тартибли ўтказилишида мактабимизда фаолият кўрсатаётган «Камалак» бошланғич ташкилоти сардорларининг ҳам ўз ўрни бор. Улар ўқувчилар ўртасида ўзаро тартибни сақлашда навбатчи ўқитувчиларга кўмак беришади, — дейди Яққасарой туманидаги 91-мактаб директорининг ўқув-тарбия ишлари бўйича ўринбосари Мазлума Кўчқорова. — Мактабимизда ўқувчи ва мураббийларнинг танаффус пайтида навбатчилиги

ташкил этилган. Улар мактаб биноси ҳамда унинг ҳудудида танаффус пайтидаги тартиб-интизом ва осойишталикка бевосита масъулдирлар.

Мактабда ҳар хил ёшдаги, жисмоний ва руҳий ҳолати турлича бўлган ўқувчилар таълим-тарбия олади. Шу маънода танаффусни мазмунли ташкил этишда, айниқса, бошланғич синф ўқувчиларига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Бошланғич синф ўқитувчилари улар эътиборини қизиқарли ҳаракатли ўйинларга қаратиши, имкон қадар улар билан биргаликда ўйнаши айни муддао. Шунингдек, таълим муассасамизда бошланғич синф ўқувчиларининг дарс ичидаги қисқа танаффусларда турли жисмоний машқларни бажаришлари учун шарт-шароитлар яратилган.

Дарҳақиқат, мактабда ўқув жараёнининг сифатли ва самарали ташкил этилишида ҳеч бир масалага иккинчи даражали деб қараб бўлмайди. Зеро, ҳар бир сониядан ўз ўрнида ва мақсадли фойдаланишни йўлга қўйиш кўзланган режанинг тўлиқ бажарилишини кафолатлайди.

Санжар РУСТАМОВ,
«Ma'rifat» мухбири

Асалнинг ози ширин

Мактабда ўтаётган ҳар бир дақиқа ўқувчининг дунёқараши кенг, тафаккури теран, билимдон ва жисмонан соғлом бўлиб улғайишига хизмат қилади. Аммо ҳар нарсанинг ўз меъёри борлигини унутмаслик даркор. Ўқувчиларнинг жисмоний, психо-физиологик хусусиятларини инobatга олган ҳолда ҳар бир соат дарсдан сўнг танаффуснинг жорий этилгани ҳам бежизга эмас.

— Барча синфлар учун дарслар ўртасида кичик танаффусларнинг 10 дақиқа давом этиши ўқувчиларнинг жисмоний ва руҳий хусусиятларига мос келади, — дейди Республика Давлат санитария-эпидемиология назорат-маркази Болалар ва ўсмирлар гигиенаси бўлими мудири Н. Солиҳова. — Иккинчи соатдан кейин эса 30 дақиқалик катта танаффуснинг чалиниши мақсадга мувофиқ, 30 дақиқалик битта катта танаффус ўрнига иккинчи ва учинчи соатлардан сўнг 20 дақиқалик танаффуслар берилиши ҳам мумкин. Бу пайтда ўқувчилар асосан ҳаракатли ўйинларни ўйнасалар фойдадан холи бўлмайди.

Танаффусдан ҳар ким турли мақсадларда фойдаланади. Бироқ унинг ҳам маълум мақсадларга хизмат қилувчи вазифалари мавжудлигини унутмаслик керак. Бу пайтда ўқувчилар ўқиш ва билим олишда бир муддат дам олишлари, фан кабинети раҳбари ёки навбатчи ўқувчилар эса деразаларни очиб, синфхона ҳавосини алмаштиришлари мақсадга мувофиқ.

— Ўқувчи кириш кўнғироғи чалингандан сўнг 3-5 дақиқа ичида дарсга мослашади, 15 дақиқа мобайнида эса унда мавзунини тушуниш жараёни оптимал даражага кўтарилади. Бу пайтда унинг юрак уриши бир дақиқада ўртача 70-72 тани ташкил этиб, нафас олиши меъёрида бўлади. Кейинги дақиқалардан бошлаб ўқувчининг партада ҳаракатсиз ўтириши, синф ҳавосининг оғирлашуви натижасида юрак уриши бир дақиқада 68тагача секинлашиши, қонда ва мияда кислород миқдори камая бориши ҳамда уйқуси келиб, эснай бошлаши мумкин, — дейди Низомий номидаги ДПУ Табиий фанлар факультетининг зоология, анатомия ва физиология кафедраси ўқитувчиси Мукаррам Туркменова. — Танаффусда ўқувчиларнинг тоза ҳавога чиқиши, жисмоний ҳаракатда бўлиб, вақтларини мазмунли ўтказишлари қонда адреналин гормони миқдорининг ортишига олиб келади, қон айланиши яхшиланади, мия хужайралари кислород билан тўйинади.

Мутахассисларнинг таъкидлашича, ҳавоси оғир хонада узок

МАКТАБДА ТАНАФФУС

У НИМАГА ХИЗМАТ ҚИЛИШИ КЕРАК?



синфдан ташқарида пайтлари синф-хона ҳавосининг тозаланиши кабинет тизимига асосланган умумтаълим мактабларида, яъни ўқувчилар фан хоналарини ҳар соатда алмаштиришлари учун ҳам қулай. Аммо айрим ҳолатларда танаффус вақти фақат фан синф хоналарини алмаштириш учунгина сарфланади. Оғир ҳаво ва жисмоний ҳаракатлар миқдорининг чекланиши ўқувчиларнинг самарали билим олишларига тўсқинлик қилиши мумкин. Танаффусларнинг ўрни, айниқса, сўнгги соатларда ҳаммага бирдек сезилиши табиий. Гарчи мактаб дарс жадвалида қийинлик даражаси юқори бўлган фанлар кичик синфларда иккинчи, учинчи соатларга, катта синфда эса 2,3 ва 4-соатларга қўйилган бўлса-да, танаффуслар вақтининг қисқалиги, ўқувчиларнинг руҳий ва жисмоний толиқлиши сўнгги соатларда ўтиладиган фанлардаги билим, кўника ва малакаларни ўзлаштириш самарадорлигига таъсир кўрсатиши эҳтимоли йўқ эмас.

Катта танаффус — катта имконият

Катта танаффус нафақат ўқувчилар, балки педагог-муаллимлар учун ҳам дам олиш, тамадди қилиб, куч тўплашга энг қулай фурсат. Шу сабабли таълим даргоҳларида ўқувчилар билан бир қаторда педагогларнинг ҳам дам олишлари учун зарур шароитлар яратилиши лозим. Бу пайтда навбатчи ўқувчилар синф хонасини энгил тартибга келтириб, полларни бир сидра артиб чиқишлари; ўқув-лаборатория жиҳозларининг тозаллиги ва сақланишига эъти-



Б.РИЗОКУЛОВ олган суратлар.

— Кейинги соатлардан бошлаб 10 дақиқа дам олишлари учун имкон яратилган. Бу пайтда ўқувчилар фан хоналарини алмаштириш билан бирга мактаб ҳовлисига чиқиб, ўйнашлари учун ҳам вақтлари етади. Катта танаффусда эса 100 ўринга мўлжалланган ошхона ва буфетда сифатли овқатланишларига эътибор бераёلمиз. Бу жараёнга навбатчи ўқитувчилар ва она-оналар ҳам жалб қилинган бўлиб, ўқувчилар эътиборини ҳар хил кимёвий, санитария-гигиена талабларига жавоб бермайдиган маҳсулотларни эмас, мактаб ошхонасидаги иссиқ овқатларни истеъмол қилишига қаратмоқдамиз.

Ўқувчи, сиз нима билан бандсиз?

Замон шиддат билан ривожланмоқда. Атрофимизни турли зарарли-ю зарарсиз ахборотлар қуршаб олган. Бугун интернет ҳамда компьютер ўйинлари ўқувчилар фикрини кутубхона ёки спорт машғулотларидан кўра кўпроқ эгаллаб олишга улгурди. Айниқса, ҳаётимизга тобора чуқурроқ кириб бораётган қўл телефонлари ўқувчиларни нафақат таълим олишдан чалғитмоқда,

Dars maqsadi: o'quvchilarga ma'naviy meros haqida bilim berish.

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan munosib hissalarini ilmiy asoslash.

Tarbiyaviy maqsad: yoshlarda buyuk ajdodlarimizga munosib farzand bo'lish hissi hamda ularda vatanparvarlik, ongli intizom va yaxshi xulqni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning fikrlash doirasini, nutq madaniyatini kengaytirish, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatish.

Tayanch so'zlar: meros, ma'naviy meros, Avesto, sivilizatsiya, osori-atifa, xalq og'zaki ijodi.

Dars turi: yangi mavzuni bayon qilish.

Dars metodlari: «Aqliy hujum» va guruhlarda ishlash.

Didaktik vositalar va dars jihozlari: darslik, qo'shimcha adabiyotlar (Prezident I.Karimovning «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir», «Xavfsizlik va barqaror

Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy kabilarning nomlari jahon xalqlari tomonidan hurmat bilan tilga olinib kelinmoqda.

2-guruh uchun matnning qisqacha bayoni.

Bundan 2700 yil avval yurtimizda yaratilgan «Avesto» kitobi ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy va tarixiy merosidir. Ayni zamonda «Avesto» bu qadim o'lkamizda buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, maishiy turmushi, axloqi, urf-odatlarini, diniy e'tiqodi, diniy marosimlarda ijro etadigan qo'shiqlari, chorvachilik va dehqonchilik kasbi-kori, savdo-sotig'i, qo'shni xalqlar bilan iqtisodiy-madaniy munosabatlari keng yoritilgan.



Bir soatlik dars

MAVZU:

MA'NAVIIY MEROS

7-sinf, IV chorak

taraqqiyot yo'lidan». «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarlari), alomalarining rasmlari, guruhlarda ishlash uchun yangi mavzuning matni.

Matnlar mavzusi

1. Azaliy madaniyat maskani.
2. «Avesto» — bebaho meros.
3. Xalq og'zaki ijodida erksevarlik, vatanparvarlikning kuylanishi.
4. Mutafakkirlarimiz inson fazilati va aql-u zakovati haqida.
5. Muqaddas kitoblarimizda ezgu g'oyalar.

Sinf xonasi guruhlarda ishlash uchun oldindan tayyorlanadi.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism (3 daqiqa).

O'quvchilar darsga kirishda o'qituvchi tomonidan tayyorlangan qog'ozlarga chizilgan (5 xil) rasmlarni tanlab oladilar va tanlagan rasmlariga qarab, shunday shakl tushirilgan qatorga joylashadilar.

O'qituvchi Prezidentimizning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida qayd etilgan 1996-yili Parijda YUNESKOning o'sha paytdagi Bosh kotibi Federiko Mayor bilan bo'lgan suhbatni hikoya qilib beradi.

Janob Mayor Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda komputer yordamida tekshirib ko'rilganda, atigi bir necha daqiqaga farq qilinishi aniqlandi, deb aytganida, Prezidentimiz nima deb javob qaytarganlar?

O'quvchilar javobi: — Ulug'bek xato qilishi mumkin emas, balki komputer xato qilgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan.

O'qituvchi har bir guruhga oldindan tayyorlangan matnlarni tarqatadi.

II. Yangi mavzu: Ma'naviy meros Guruhlarda ishlash (15 daqiqa).

1-guruh uchun matnning qisqacha bayoni. O'qituvchi matnni o'zi istaganicha batafsil va to'liq tayyorlashi mumkin.

Markaziy Osiyo azal-azaldan ilm-fan va madaniyatning, adabiyot va san'atning markazlaridan biri bo'lib kelgan, bu o'lkada yetishib chiqqan ulug' mutafakkirlar jahon ilm-fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari va ilmiy asarlari bilan ijodiy boyitib, yuqori cho'qqiga ko'targanlar. Uning keyingi taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatib, kelgusi avlodlarga boy ma'naviy meros qoldirganlar.

Ulug' mutafakkirlar Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, muhaddis Imom Buxoriy, tasavvuf ilmining allomalari Ahmad

Zardushtiylik hayotining asosiy mazmuni ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal va adolatli hayot tarzidan iborat bo'lgan. Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bo'lmog'i lozim. Yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishida yolg'on gapirmaslik, va'daning ustidan chiqish, halol mehnat qilish muhim rol o'ynaydi.

3-guruh uchun matnning qisqacha bayoni.

Asotir, ertak va rivoyatlar, termalar, dostonlar, barcha folklor asarlar ajdodlarimizdan bizga qolgan nodir boylik bo'lib, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. «To'maris», «Shiroq», «Uch og'a-ini birtirlar», «Qahramon», «Malikai Husnobod», «Alpomish», «Qirqqiz», «Go'ro'g'li», «Ravshan», «Avazxon», «Chambil qamali», «Oysuluv» singari xalq og'zaki ijodi namunalari ham milliy, ham umum-bashariy ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalar ilgari surilgan.

Qahramonlik dostonlari, ertaklar va afsonalarda umuminsoniy g'oyalar tarannum etiladi. Ularda inson uchun jondan aziz hisoblangan muqaddas dargoh — Vatanning istiqloli va istiqboli, erki va mustaqilligi uchun ajnabiyarga qarshi murosasiz kurashish oliy insoniy burch ekanligi haqidagi fikr-mulohazalar aks ettiriladi.

4-guruh uchun matnning qisqacha bayoni.

IX—XV asrlar Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ma'naviy taraqqiyotida, axloqiy, diniy ta'limotlari rivojlanishida keskin o'zgarish, tub burilish davri bo'lgan.

Uyg'onish davrining ulug' namoyandasi, buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Nasr Forobiy o'rta asrlar sharoitida birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta'limot yaratgan bo'lsa, Ibn Sino ijodida fanni tarmoqlarga ajratish, ilmlarning tartibini aniqlash, ularni tasnif qilishga e'tibor alohida o'rin egallaydi.

Alisher Navoiy ijodida bosh mavzu — inson, xalq, Vatan, ularning gullab-yashnashi, istiqboli haqida bo'lib, shoir inson va uning taqdiri, xalq va uning manfaatlarini yo'lida g'amxo'rlik qiladigan kishilarni ulug'laydi. Kishilarga ta'rif berib, ular haqida o'zining samimiy fikrlarini bayon etadi: «Odamni ersang, demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidin g'ami». Necha asrlar o'tdiki, bu hikmat insoniyatni ezgulikka chorlab keladi.

5-guruh uchun matnning qisqacha bayoni.

Ko'p millatli mamlakatimizda ijtimoiy-

siyosiy barqarorlik, fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlikni saqlashda to'g'ri yo'naltirilgan diniy tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Zardushtiylik, budda, xristianlik, islom va boshqa dunyo dinlari tarixini, rivojlanish bosqichlarini o'rganish, allomalar hayoti va faoliyati bilan tanishish o'quvchilarda tolerantlik tuyg'ularining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muqaddas kitoblarimizda «O'g'irlik qilma», «Pora olma», «Yolg'on so'zlama», «O'zingga ravo ko'rmaganni boshqalarga ham ravo ko'rma», «Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka o'tmanglar», «Ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmandning hojatini chiqaring», «Ahmoqdan uzoqlashing», «Nonni e'zozlanglar», deb zikr etilgan ezgu hikmatlar umumbashariy axloqiy qadriyat sifatida jahondagi jamiki xalqlar, elatlar, millatlarga taalluqlidir.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, barcha dinlar zamirida halollik, poklik, sabr-qanoat, og'ir-vazminlik, har qanday sharoitda ham o'zini tuta bilishi fazilatlarini yuksak qadrlanadi.

Guruhlar taqdimoti (10 daqiqa).

Bu bosqichda guruhlar o'z ishlari taqdimotini o'tkazadi. Har bir guruh sardori o'ziga berilgan masalani misollar yordamida tushuntirishga harakat qiladi. Boshqa guruhdagi o'quvchilar esa muhokama etilayotgan masala bo'yicha bildirilayotgan yangi fikrlarni yozib boradilar.

O'qituvchi xulosasi (2 daqiqa).

— Demak, ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, otabobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar — siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmui ekan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, asarlarda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o'zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l-yo'riq, pand-nasihah va o'g'itlar aks ettirilgan. Shu bilan birga, madaniy meros iqtisodiy farovon, adolatli demokratik jamiyat qurish, har tomonlama yetuk, ma'naviy komil insonni tarbiyalashdek o'ta muhim va olijanob maqsadga xizmat qilib kelmoqda.

Xulosadan so'ng o'qituvchi o'quvchilarning mavzuga oid tushunchalarni qay darajada o'zlashtirganini aniqlash maqsadida savollar beradi.

III. Mavzuni mustahkamlash «Aqliy hujum» (6 daqiqa).

«Ma'naviy» meros nima ekan?

Buyuk ma'naviy boyligimiz namunalarni sanab bering.

Milliy va umumbashariy g'oyalar ilgari surilgan qanday dostonlarni bilib oldingiz? Uyg'onish davrining namoyandalardan kimlarni bilasiz?

Alisher Navoiy asarlari markazida qanday g'oyalar ilgari surilgan?

O'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil bayon qiladilar.

IV. O'quvchilarning o'zlashtirishini aniqlash va baholash uchun test savollari (5 daqiqa).

1. Meditsinaga asos solgan allomaning nomini aytting.

A. Abu Nasr Forobiy.

B. Abu Ali ibn Sino.

D. Muso Xorazmiy.

E. Mahmud Qoshg'ariy.

2. Yurtimizda buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganiga guvohlik beruvchi tarixiy hujjat...

A. O'rxun-Yenisey yodgorligi.

B. Irq bitigi.

D. «Avesto» asari.

E. Qobusnoma.

3. «...Odil va haqqo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi». Prezidentimiz tomonidan bildirilgan bu fikrda qaysi kitob haqida so'z bormoqda?

A. «Avesto».

B. «Alpomish».

D. «Go'ro'g'li».

E. «Oysuluv».

4. Uyg'onish davrining ulug' nomoyandasi, buyuk mutafakkir va qomusiy olimni aniqlang.

A. Abu Nasr Forobiy.

B. Mahmud Koshg'ariy.

D. Imom Moturudiy.

E. Mahmud Zamaxshariy.

Har bir o'quvchining mavzu muhokamasidagi, dars jarayonidagi ishtiroki va faolligi inobatga olinib, bu boradagi ko'rsatkichlar uning o'zlashtirish darajasiga qo'shib boriladi. Mustahkamlash uchun berilgan test savollari natijalariga ko'ra, o'quvchilar bilimi baholanadi.

V. Uyg'a vazifa (2 daqiqa).

«Ma'naviy meros» mavzusiga oid qo'shimcha adabiyotlarni o'qish va shu asosda krossvord tuzib kelish.

F.XOLMIRZAYEVA,
RTM ijtimoiy fanlar bo'limi
bosh metodisti



Ma'rifat Metodist

3-илова

Юқори малакали, муаллифлик дастурларини ишлаб чиққан, педагогик технологияларни иш жараёнида қўллаётган, индивидуал иш услубига эга мутахассисларнинг тажрибаларини ўрганиш, умумлаштириш, оммалаштириш ва таълим жараёнига кенг татбиқ этиб бориш таълим-тарбия самарадорлигини оширишнинг муҳим омилларидан биридир.

Илғор иш тажрибаларини аниқлашнинг асосий мезони ўқувчиларнинг Давлат таълим

бўлгани, турли шароитларда си-наб кўрилганлиги;

— оммавий равишда амалиётда тажрибани ижодий қўллаш имкониятининг мавжудлиги (махсус шароитга мўлжалланган тажрибаларни оммалаштиришга тавсия этилмайди);

— оптималлиги, минимал вақт, шароит ва воситаларни талаб этиши;

— истиқболлилиги, илғор иш тажрибаларини ривожлантириш ва улардан амалиётда фойдаланиш

нинг 3 йиллик ўқув даври давомидаги самарадорлигини таҳлил қилиш;

— кўрик-танловларда (туман, вилоят, республика босқичида) ўқувчиларнинг эришган натижаларини аниқлаш;

— илғор иш тажрибасининг ривожланиб бориш жараёнига эътиборни қаратиш лозим.

Илғор тажрибани ўрганишда, энг аввало, тажрибани ўрганиш режаси тузилади, сўнгра масала назарий жиҳатдан ўрганилади

Педагогларнинг иш тажрибалари қандай оммалаштирилади?

Йўналиш, шакл ва усуллар

стандартлари талаблари асосида билим, кўникма ва малакаларни эгаллаши билан белгиланади.

Буни аниқлашда бир қатор меъёр ва талаблар белгиланган. Биринчи навбатда, илғор иш тажрибасининг натижавийлиги, ўқув-тарбия ишлари самарасининг юқори даражадалиги инobatга олинади. Шунингдек, оммалаштириш куйидаги талаблар асосида шакллантирилади:

— долзарблиги ва ижтимоий аҳамияти, ўқув-тарбия вазифаларининг самарали бажарилиши, бошқарув фаолияти мазмунининг такомиллаштирилиши;

— амалиётдаги методикада янгилик;

— педагогик жараёнда янги қонуниятларни кашф этишга таъсири, эришилган натижаларнинг педагогика ва методика жиҳатдан замонга мослиги, исботланганлиги;

— ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларни эгаллашдаги сифат кўрсаткичларининг юқори натижавийлиги ва илғор тажрибанинг шахсни ривожлантиришга, тарбиялашга йўналтирилганлиги;

— барқарорлиги, бир неча марта юқори натижага омил

истиқболларининг мавжудлиги.

Иш тажрибалари педагог ходимлар билан ўтказиладиган учрашувлар жараёнида ўқитувчининг дарсларини кузатиш, педагогика, психология халқ таълимига оид матбуот нашрларини мунтазам кузатиб ва таҳлил қилиб бориш орқали, методик кенгашларда, методбирлашмаларда, педагогик кенгашларда иштирок этиш ва методик маърузаларни тинглаш орқали, муайян муаммолар билан иш олиб бораётган экспериментал гуруҳ фаолияти билан танишиш жараёнида ўрганилади.

Илғор иш тажрибани ўрганишда куйидагиларга эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқ:

— таълим жараёнидаги замонавий муаммолар ечимини ақс эттирувчи тажрибани танлаш;

— аниқланган тажрибани дастур асосида таълимнинг бутун кўламини қамраб олган ҳолда ўрганиш;

— ўрганилаётган тажрибанинг муаммоларга таъсир қилувчи ва тузатувчи характерга эга эканлигини эътиборга олиш;

— ўрганилаётган иш тажрибасига самарали илғор педагогик технологияларни олиб кириш ва уни таълим мазмунига сингдириш;

— ўқитувчи педагогик фаолияти-

(фанга ҳамда таълим-тарбияга оид адабиётлар), тажрибани ўрганиш методлари танланади, тажрибани ўрганувчи ишчи гуруҳлари томонидан вазифалар тақсимланади. Шунингдек, ўқитувчининг маҳоратини аниқлашга қаратилган саволлар тузилади ва унинг маҳорати ўрганилади, илғор тажрибалар умумлаштирилади ва оммалаштириш шакллари белгиланади.

Илғор иш тажрибалар ўрганиб бўлингандан сўнг умумлаштириш, тўпланган маълумотларни таҳлил қилиш, иш тажрибаси моҳиятини ёритишга эътибор қаратилади. Тўпланган материалларни умумлаштириш учун куйидаги ишлар амалга оширилади:

— ўқитувчи ҳақидаги маълумотлар жамланади;

— ўрганилган йўналиш бўйича ўқитувчининг амалга оширган ишлари тўпلام ҳолатига келтирилади;

— ўқитувчининг илғор иш тажрибаси бўйича аниқ хулосалар чиқарилади;

— ўқитувчи томонидан берилган таклифлар тавсия ҳолатига келтирилади;

— материаллар керакли миқдорда кўпайтирилади;

— илғор иш тажрибалари семинар-кенгашларда, педагогик кенгашларда, фан методика уюшмаси йиғилишларида муҳокама қилинади.

Умумлаштириш охирида илғор тажрибалардан кимлар фойдаланиши мумкинлиги ва уни қайси шаклда оммалаштириш белгиланади.

Илғор иш тажрибаларини оммалаштириш шакллари куйидагиларни ўз ичига олади:


— педагогик кенгаш, методбирлашма йиғилишларида, анжуманларда, педагогик ўқишларда маъруза қилиш;

— илғор тажриба ҳақида таянч мактаблар, семинарлар, ижодий гуруҳлар ва малака ошириш курсларида маълумот бериш, кўргазмаларда, панорама-дарсларда кўрсатиш;

— оммавий ахборот воситаларида мақолалар ва тавсиялар шаклида бериш.

Педагогик тажриба малака ошириш курслари, мастер-класс, касбий маҳорат кўрик-танловлари, кўргазмалар, семинарлар ва бошқаларда тарғиб қилинади.

Илғор иш тажрибасини оммалаштириш тизими:



У.АСРОНОВА,
РТМ Методик хизмат ва педагогларнинг малакасини оширишни мувофиқлаштириш бўлими бошлиғи



ТЕСТ ТУЗИШИНИ

Ўқувчи олган билим, кўникма ва малакалар турли назорат усуллари орқали аниқланиб, муносиб баҳолаб борилиши зарур. Шу мақсадда умумтаълим мактабларида жорий, оралик, bosqichli ва якуний назорат ўтказиш йўли билан ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражаси аниқлаб борилади. Жорий назорат асосан сўровлар, коллоквиумлар, семинарлар, тест топшириқлари тарзида ўтказилади. Ҳар чорак якунида ҳамда ўқув дастурининг тегишли бўлими тугаллангандан кейин оралик назорат амалга оширилади. Ушбу назоратда фойдаланиладиган материаллар ўқув фани ўқитувчиси томонидан тайёрланиши лозим. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги Республика таълим маркази томонидан тайёрланиб, ўқув йили якунлангач, ташкил этилувчи bosqichli назорат имтихонлар, тестлар, синовлар шаклида бўлиб ўтади. Якуний назорат эса ўқиш тугаллангандан сўнг давлат аттестацияси шаклида ўтказилади.

Халқ таълими тизимида "Устоз-шогирд мактаби" доирасида фаолият юритаётган устоз ўқитувчилар ўртасида ўтказилган сўровномаларда оралик назоратлар асосан тестлар воситасида ўтказилиши аниқланди. Бунда муқобил жавоби тўртта бўлган ёпиқ тестлар қўлланиб келинмоқда. Шунингдек, мониторинг ўтказишда ҳам шундай тестлардан фойдаланилади. Амалиётда ишлатилаётган тестларнинг фан ўқитувчилари томонидан тузилаётгани педагогларнинг тестология назариясидан хабардор бўлишларини талаб этади.

Шуни ҳисобга олиб, тестларни тузиш ва фойдаланиш юзасидан қуйидаги маълумотларни беришни лозим топдик:

ТЕСТ (инг. Test — топшириқ) — объектнинг у ёки бу сифати мавжудлигини аниқлаш мақсадида ўтказиладиган стандарт шаклдаги топшириқдан иборат.

Тестлар бир неча хил бўлади: меъёрий, мезонга кўра ва стандартлаштирилган.

Меъёрий тест ўтказишда тестдан ўтказилувчи шахс бошқа тестдан ўтказилган гуруҳ аъзолари билан солиштирилади. Берилган тестдан ўтган шахсларнинг ўртача кўрсаткичи **меъёр** ҳисобланади. Солиштириш натижасида мазкур шахснинг ўртача кўрсаткичдан юқори ёки паст билим даражасига эга эканлиги аниқланади.

Таълим тизимида солиштириш учун учта меъёрий гуруҳлар олинади:

1-гуруҳ — синф, бир неча синф ёки мактаб (масалан, физикани ўрганган ўқувчи бошқа синфдаги ўқувчи билан ёки бир неча синфлар) ўзаро солиштирилади;

2-гуруҳ — туман мактаблари (ўқувчи туман миқёсида бошқа тумандаги шу ёшдаги ўқувчилар билан) ўзаро солиштирилади;

3-гуруҳ — вилоят, шаҳар мактаблари ёки мамлакат бўйича ўртача маълумотлар (олий ўқув юртига кириш тестлари топширилган ҳолларда).

Меъёрий тестлар қуйидаги афзалликларга эга:

— тест саволлари кўпгина қобилиятларни текширишни кўзда тутаяди;

— ўқувчиларнинг катта миқдордаги мураккаб материални турли йўللар билан ўрганганларида эришган умумий даражасини аниқлашда фойдали;

— энг иқтидорли ўқувчиларни танлаб олиш имкониятини беради.

Меъёрий тестларнинг камчилиги ўқувчи кейинги bosqichga ўтишга қай даражада тайёр эканлигини белгилаб бермаслигида кўзга ташланади (5 фоиз ўқувчилар механика бўлимидан яхши кўрсаткичга эга, лекин бу ҳали улар молекуляр физикани ўқишга ўтиши мумкин, дегани эмас). Шунингдек, меъёрий тестлар ўқувчиларнинг ҳиссий ва психомо-

тор ҳолатларини ўлчаш учун мос келмайди. Ўқувчилар ўртасида мусобақага мойилликни вужудга келтириб, уларни билим олишдан кўра кўпроқ очколарни тенглаштиришга интитиради. Аммо меъёрий тестлар ўқув предмети бўйича ўқувчиларнинг умумий қобилиятларини, катта гуруҳда қобилиятларни намоян қилиш диапазонини аниқлашда ва бўш иш ўрни учун энг мақбул номзодни танлашда самара келтиради.

Мезонларга кўра тестдан ўтказишда натижалар ўзгармас, **доимий стандартлар** билан солиштирилади. Масалан, ҳайдовчилик гувоҳномасини бериш учун талабгорнинг билими мавжуд стандарт билан солиштирилиши керак. Уни бошқа соҳа ходимининг қобилиятлари билан солиштириб бўлмайди.

Мезонлар бўйича ўтказилган тестлар муаллимга ўқувчилар билими ва имкониятларини аниқлашга кўмак беради. Масалан, тўрт хонали сонлар билан арифметик амалларни бажариш бўйича 20та мисол берилган бўлса, ўқувчи уларни ўзлаштирган, деб ҳисоблаш учун мисолларнинг энг камида 17таси тўғри бажарилган бўлиши керак.

Айрим ҳолларда тавсия этилган тестларни 100 фоиз тўғри бажариш талаб этилади.

Янги мавзунинг ўтишдан аввал ўқувчининг шу мавзунинг ўрганишга тайёрлиги ҳамда эмоционал ва психомотор ҳолатини аниқлашда, шунингдек, уларни ўқитиш учун гуруҳлашда **мезонга кўра ўтказиладиган тестлардан** фойдаланиш тавсия этилади.

Стандартлаштирилган тестлар маълум стандарт талаблари қўйилган дастур асосида тузилиб, ўқувчининг билим, кўникма ва малакасини аниқлашга мўлжалланади. Уларнинг эришилган даражани, қобилиятларни (қизиқишларни ҳам) аниқловчи ҳамда ташхисловчи турлари мавжуд.

Ўқитувчилар кўпроқ эришилган даражани ва қобилиятларни аниқловчи тестлар билан ишлайди.

Эришилган даражани аниқловчи тестлар ўқувчи маълум соҳада ўзлаштирган билимлар миқдорини ўлчайдиган стандартлаштирилган тестлардир. Бу каби тестларни бутун синфга ёки индивидуал равишда ишла-



тиш, натижаларни ҳисоблашда турлича балл тизими қўлланилиши мумкин.

Ташхисловчи тестлар таълимдаги муаммоларни белгилаб олиш учун индивидуал равишда қўлланилади.

Қобилиятларни аниқловчи тестлар ўқувчилар иқтидорини аниқлаб, уларнинг келгусидаги касбий йўналишларни танлашларига кўмак сифатида ишлатилади.

Тестларни амалиётда самарали қўллаш учун улар мазмунан ва функционал жиҳатдан валид бўлиши, содда, ишонарли тузилиши лозим. Тез бажарилиши керак бўлган тестлар кўррект бўлиши, шунингдек, баҳолаш даражаси, билимларни шакллантириш жараёни билан мувофиқлаштирилган ҳолатда ишлаб чиқишли лозим.

Тестларнинг мазмунан валид бўлиши барча тест топшириқлари ўқувчилар томонидан олдин ўрганилган мавзулар доирасида бўлишини назарда тутаяди. Бунда ҳар бир тестда синаладиган билим, кўникма ва малакалар аввалдан аниқ белгиланган бўлиши талаб қилинади.

Функционал жиҳатдан валид тестлар ўтказиладиган ўқув пред-


мети бўйича билим сифатини кўрсатадиган аниқ ташхисловчи белгисига йўналтирилган бўлиши керак. Тестни унинг ташхисловчи белгиси билан солиштириб, функционал валидлиги тўғрисида ҳулоса чиқарилади. Репродуктив айтиб бериш орқали; репродуктив хотирасига кўра; эвристик ва ижодий ёндашиш ташхисловчи белгилар сифатида қайд этилган. Демак, тестлар ушбу талаблардан бирига мослаб тузилиши керак. Таълим мақсади аниқ белгиланмаган бўлса, тестнинг функционал валидлигини тасдиқлаб бўлмайди. Масалан, таълим мақсади сифатида «ўқувчиларни адабий матнни француз тилида ўқишга ўргатиш» қўйилган бўлса, исталган тестни бериш мумкин. Лекин унинг на мазмунан валидлигини, на функционал валидлигини аниқлаб бўлади. Таълим мақсади «ўқувчиларга мустақил равишда таянч лексик бирлик (800) асосида адабий матнни француз тилида ўқишни ўрганиш» тарзида қўйилса, тестнинг валидлиги француз тилига кирган 800 лексик бирликни хотирасига кўра таниб олишга асосланганлиги билан тасдиқланади.

Ўқувчилар билимини тестлар воситасида баҳолашнинг ижобий ва салбий томонлари

Ижобий томонлари	Салбий томонлари
Ўлчаш жараёнининг ва натижаларининг объективлиги юқори даражада.	Оғзаки сўровга мўлжалланган дарсликларни тест усулида баҳолашга ўзгартириш талаб қилинади.
Ўлчаш ишларини стандартлаштириш имконияти мавжуд.	Ўлчаш ишларини бажариш учун материаллар тайёрлашга кўп вақт кетади.
Ишончлилик даражасини юқори 0,9 коэффициентгача кўтариш мумкин.	Тестология талабларидан хабардор мутахассислар етишмайди.
Ўлчаш ишларини, биринчи навбатда, мазмунан валидликни (олдиндан ўрганилганлик даражасини аниқ мақсадга йўналтирилган ҳолда билиш) таъминлаш мумкин.	Тест жавобларини белгилашда ўқувчиларнинг тасодифан тўғри жавобни белгилаш эҳтимоли бор.
Анъанавий «тўрт» баллик тизимга нисбатан кўп баллик тизимда баҳолаш мумкин.	
Қисқа вақт давомида кўп миқдордаги ўқувчиларнинг билими, кўникмаси, малакасини аниқлаш мумкин.	
Ўлчаш вақтида субъектив омилларнинг таъсири кам.	
Натижаларга ишлов беришни автоматлаштириш ва уларни узоқ вақт сақлаш имконияти бор.	

(Давоми 9-бетда.)

БИЛАСИЗМИ?



Бурхон РИЗОКУЛОВ
олган суратлар.

(Давоми. Боши 8-бетда.)

Содда тестлар фақат битта вазифани бажаришни талаб қилган ҳолда тузилади.

Ишонarli тестлар эса таълим сифатини назорат қилиш учун қўйилган мақсадга мос келадиган тестлар тўпламидан фойдаланиш зарурлигини аниқлатади.

Чекланган вақт давомида бажарилиши талаб қилинадиган тестлар **тез бажариладиган тестлар** деб аталади.

Мураккаблик даражасига кўра тестлар **тўртта** бўлинади:

Биринчи даражали тестларда ўқувчига илгари ўрганган объектларини билиб олиш вазифаси берилади. Бу даражадаги тестлар уч хил кўринишда бўлиши мумкин: **таниб олиш, фарқлаш ва синфларга ажратиш.**

Таниб олишга доир энг оддий тест жавоби иккита бўлиб, «ха» ёки «йўқ» деган мазмунда бўлади. Масалан:

Инсоннинг асаб тизими биологияда ўрганиладими?
А) Ҳа В) Йўқ

Фарқлаш тестларида тўғри жавобни кўрсатиш керак бўлади. Айрим тестларда нотўғри жавобни кўрсатиш сўралади. Масалан:

Куч бирлигини кўрсатинг.
А) Паскаль В) Ньютон
С) Ватт Д) Вебер

Синфларга ажратиш тестларини куйидаги мисолдан тушуниб олиш мумкин:

Унитар давлат белгилари берилган қаторни кўрсатинг.

1) Ягона конституция, субъектлар ҳудудий чегараланиши, умумий солиқлар.

2) Иттифоқ конституциясининг мавжудлиги, субъектлар ҳудудий чегараси, ягона қонунчилик.

3) Сармояси аъзоларининг ихтиёрий бадалларидан ташкил топади.

4) Ягона ҳудуд ва чегара, ягона армия, ягона пул бирлиги.

А) 1, 2, 3 В) 1, 2, 4
С) 2, 3, 4 Д) 1, 2, 3, 4

Иккинчи даражали тестлар Одатда уч турда учрайди:

— ўрнига қўйиб топиладиган тестлар;
— конструктив тестлар;
— типик масала берилган тестлар.

Ўрнига қўйиб топиладиган тестларда бирор-бир қоида, тушунча, формула ва шунга ўхшаш топшириқ берилиб, жумла ёки формулада бўш жой қолдирилади. Ўқувчи бўш ўринга тўғри жавобни қўйиб, қоида, тушунчани тўлдиради. Масалан:

1. Жисмининг фазодаги вазиятининг бошқа жисмларга нисбатан вақт ўтиши билан ўзгаришига ... дейилади.

А) Траектория В) Босиб ўтилган йўл
С) Механик ҳаракат Д) Кўчиш

2. $Q = I^2 R t$. Бўш ўринга қуйидагилардан тўғриси-ни танлаб қўйинг.

А) t В) n С) s Д) f

3. Ўсимликларда қуёш нури таъсирида ва хлорофилл дончалари иштирокида анорганик моддалардан органик моддаларнинг ҳосил бўлиши ... дейилади.

А) фотосинтез В) хемосинтез
С) трансляция Д) репликация

Конструктив тестларда ўтилган мавзулар бўйича саволлар берилиб, ўқувчи хотирасига кўра тўла ва тўғри жавобни топади. Масалан:

1. Ньютоннинг биринчи қонунининг таърифи ёзилган қаторни кўрсатинг.

А) Тинч турган жисмга ташқи куч таъсир этмаса, у ҳаракатсиз қолади.

В) Тўғри чиқиқли ҳаракатланаётган жисмга ташқи куч таъсир этмаса, унинг тезлиги ўзгармайди.

С) Жисмга қўйилган ташқи таъсирлар ўзаро компенсацияланган бўлса, у тинч ҳолатда бўлади.

Д) Жисмга қўйилган ташқи таъсирлар ўзаро компенсацияланган бўлса, у ўзининг тинч ёки тўғри чиқиқли текис ҳаракат ҳолатини сақлайди.

Типик масала берилган тестларда бир йўл билан ечиладиган масала, мисол ёки топшириқ берилади. Масалан:

1. Поезд кузатувчи ёнидан 10 м/с тезлик билан 12

секундда ўтиб кетди. Поездининг узунлигини топинг.

А) 120 м. В) 240 м.
С) 100 м. Д) 200 м.

2. Одамни электр токи урганда биринчи бўлиб нима қилиш керак?

А) Ота-онасига хабар бериш керак
В) Қайднома тўлдириш керак
С) Чалқанча ётқизиш керак
Д) Тез ёрдам чақириш керак

Учинчи даражали тестлар

Бундай тестларни ечиш учун тайёр формула ёки жавоб бўлмайди. Маълум маълумотлардан фойдаланиб, формуласи ёки ҳисоблашлари бажарилади. Масалан:

1. Зичлиги 7,5 г/см³ бўлган жисмнинг сувдаги оғирлиги 3 Н, ҳаводаги оғирлиги 4 Н га тенг. Жисмнинг ҳажмини топинг.

А) 100см³ В) 750см³
С) 1м³ Д) 10см³

2. Йил бошида ходимларнинг ойлик маоши 20 фоизга, йил ўртасида 20 фоиз ва охирида 16 фоизга оширилди. Ходимларнинг ойлик маоши йил давомида неча фоизга оширилган?

А) 44 % В) 56 %
С) 73 % Д) 65 %

Тўртинчи даражали тестлар

Бундай тестлар ижодий характерга эга бўлиб, ўқувчидан ижодий фикрлашни талаб қилади. Тестлар шундай тузиладигани, жавоблари дарсликда берилмаган, таниш вазиятларда учрамаган бўлиши керак. Қўйилган муаммонинг ечимини нотаниш вазиятда аввал олган билимларидан фойдаланиб топилиши керак. Мактаб амалиётида бу жавоблари ўқувчи томонидан ёзиладиган тестлар кўринишида берилиши мумкин. Масалан:

1. Ўзбекистон Республикасида давлат ҳокимияти турларини ёзинг.

Жавоб: _____
2. Метан ва метиламин газлари аралашмасини бир-бирдан ажратиш учун амалга ошириладиган каминда иккита лаборатория усулини таклиф қилинг. Жавобингизни мумкин бўлган ре-

акциялар тенгламаларини ёзиб тасдиқланг.

Ечими: _____
3. Ўсимлик хужайрасида плазмолиз ва деплазмолиз ҳодисасини кузатиш учун бажариладиган ишларни кетма-кетликда ёзинг. Бу икки жараённинг моҳиятини тушунтириб беринг.

Ечими: _____
Тест шаклидаги топшириқлар системасига асосланган тестларда тўғри жавобларни топиш олдинги тестларга тўғри жавоб берилишига боғлиқ бўлади. Одатда улар **занжирли тестлар** деб ҳам аталади.

Масалан:
1. Жисмининг ҳолати ёки шакли ўзгаришига сабаб бўлган таъсирга _____ дейилади. Унинг катталиги _____ да ўлчанади.

Бунда ўқувчи бўш жойларга аввал куч деб, сўнгра Ньютон деб ёзиши керак.

2. Электромагнит индукция ҳодисасини ўрганган олимнинг номи

А) Кулон
В) Герц
С) Фарадей
Д) Ньютон
Е) Ампер

бўлиб, унинг ватани
А) Англия
В) Франция
С) Германия
Д) Дания
Е) Италиядир.

Бошқа бир мисолни давлат тузилиши бўйича келтириш мумкин:

1. Якка ҳокимликка асосланган давлат тузуми

А) Монархия
В) Республика
С) Империя

2. Ушбу давлат ким томонидан бошқарилади?

А) Президент
В) Монарх
С) Парламент

3. Бу давлатнинг ўзига хос томонлари...

А) Давлат бошқаруви авлоддан авлодга ўтиб боради.

В) Давлат бошлиғи сайлаб қўйилади.

С) Қонунлар кўпчилик томонидан маъқулланган ҳолда қабул қилинади.

Д) Партиялар фаолиятига кенг йўл берилади.

4. Сиз тўғри кўрсатган давлатда...

А) Фуқароларнинг ижтимоий аҳволи яхшиланиб боради

В) Фуқароларнинг сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқлари кафолатланмайди

С) Қўшни давлатлар билан дўстона алоқалар йўлга қўйилади

Жавоблари мослаштирилган тестларда бирданига бир неча савол берилиб, саволларга нисбатан жавоблари тенг ёки кўпроқ бўлган вариантлар берилади. Бунда ўқувчи ҳар бир саволга мос бўлган тўғри жавоб келтирилган рақамни ёки ҳарфни ёзиб кўрсатади.

Намуна:

1. Сув	А. 90-92 %
2. Оқсил	В. 0,1 %
3. Туз	С. 0,8 %
5. Глюкоза	Д. 7-8 %
6. Ёғ	Е. 0,9 %
	Ғ. 1-2 %

Жавоб: 1-А, 2-Д, 3-Е, 4-В, 5-С.

Ички секреция безлари ва улар ҳосил қиладиган гормонларни жуфтлаб кўрсатинг.

1. Гипофиз беши. 2. Эпифиз беши. 3. Қалқонсимон без. 4. Айрисимон без.

А) Паратгормон. В) Соматотроп. С) Мелатонин. Д) Тироксин.

Жавоб:
1....., 2.....,
3....., 4.....

Оралиқ назоратлар тестлар воситасида ўтказилганда нечта тест бериш керак, деган савол ўқитувчида муаммо туғдириши мумкин. Бунда ҳафтасига 2 соат ўқитиладиган ўқув предмети билан ҳафтасига 5 соат ўқитиладиган ўқув предметида чорак давомида ўрганилган билим, кўникма ва малакаларнинг сони турлича бўлганлигига эътибор қаратиш лозим. Тест ўтказиш учун ажратилган вақт 1 дars соатидан ортиб кетмаслиги ва ўқувчиларни зўриқтирмаслик учун оширмаслик тавсия этилади. Агарда текшириладиган билим, кўникма ва малакалар сони ундан кўп бўлса, айрим тестларга бир нечта билим, кўникма ва малакани сингдириб, тест тузиш лозим бўлади. Тестларга берилган жавобларни баҳолаш учун қийинчилиги турлича бўлган ҳар бир тестга бир хил балл бериш тавсия қилинади. Шунга кўра 30та тест орқали назорат иши ўтказилганда куйидагича баҳоланади.

Тўғри жавоблар сони бўйича баҳолаш:

1тадан 6тагача — 1 балл;

7тадан 12тагача — 2 балл;

13тадан 18тагача — 3 балл;

19тадан 24тагача — 4 балл;

25тадан 30тагача — 5 балл.

Н.ТУРДИЕВ,
РТМ директори
ўринбосари,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган халқ таълими ходими, физика-математика фанлари номзоди, доцент,
Б.ТОШНИЁЗОВ,
РТМ жисмоний тарбия, экология ва саломатлик бўлими бошлиғи,
А.НУРКУЛОВ,
ижтимоий фанлар бўлими бош методисти

Тўғри жавоблар сони бўйича баҳолаш:

1тадан 6тагача — 1 балл;

7тадан 12тагача — 2 балл;

13тадан 18тагача — 3 балл;

19тадан 24тагача — 4 балл;

25тадан 30тагача — 5 балл.

Тўғри жавоблар сони бўйича баҳолаш:

1тадан 6тагача — 1 балл;

7тадан 12тагача — 2 балл;

13тадан 18тагача — 3 балл;

19тадан 24тагача — 4 балл;

25тадан 30тагача — 5 балл.

Н.ТУРДИЕВ,
РТМ директори
ўринбосари,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган халқ таълими ходими, физика-математика фанлари номзоди, доцент,
Б.ТОШНИЁЗОВ,
РТМ жисмоний тарбия, экология ва саломатлик бўлими бошлиғи,
А.НУРКУЛОВ,
ижтимоий фанлар бўлими бош методисти

Tashabbuskor, ijodkor pedagoglarni aniqlash hamda ular tajribasini omallashtirishda ochiq darsning ўрни бекиёс. Очк дарслар ўқитувчининг иждий фаоллигини ошириш, тажрибали педагоглари хар томонлама рағбатлантиришга хизмат қилиши, шубҳасиз. Шу мақсадда юртимизда "Очк дарслар фестивали"ни ўтказиш анъанага айланган. Таъкидлаш лозимки, бу тадбир орқали юксак маҳоратга эга педагоглarning иш тажрибалари омallashtirилиши билан биргаликда таълим-тарбиянинг долзарб масалалари, муҳим ва истиқболли методлари ҳам аниқлаб олиниб, уларни ривожлантириш учун имконият яратилади. Шунингдек, фестивалда таълим мазмунининг бойишига хисса қўшадиган таълим-тарбия жараёнида эришилган ютуқларни тарғиб қилиш, фанлар кесими-

да дарс ишланмалари банкни шакллантириш масалаларига ҳам катта эътибор қаратилиши белгиланган. Ноанъанавий дарслар орқали ўқувчиларга пухта билим бериш, уларда мустақил фикрлаш кўникмаларини шакллантириш, жумладан, ота-оналарни, жамоатчилик вакиллари-ни Мактаб таълимини ривожлантириш давлат умуммиллий дастури доирасида амалга оширилган кенг бунёдкорлик ишлари билан таништиришда ҳам "Очк дарслар фестивали" ўзига хос имконият вазифасини ўтайди.

Очк дарслар фестивали тўрт босқичда ўтказилади. Унга тажрибали ўқитувчилар, маҳалла кўмитаси аъзолари, ота-оналар, васийлик кенгаши аъзолари, ҳомий ташкилот вакиллари, методистлар таклиф этилиши мумкин. «Очк дарслар фестивали»-да иштирок этган ўқитувчилар ўз

дарсларини фанни ўқитишдаги янгиликлар, таълимнинг янги шакллари, илғор усулларидан самарали фойдаланган ҳолда ўтишлари мақсадга мувофиқ.

Фестивалнинг 2-босқичида мактаб босқичида голиб деб топилб, туман ишчи гуруҳи томонидан тавсия этилган ўқитувчилар тасдиқланган жадвал асосида ўз очк дарслари билан иштирок этадилар. Дарсларни кузатиш ва баҳолаш учун туман халқ таълими бўлими методистлари, методистлар уюшмаси вакиллари ҳамда ушбу ҳудуддаги тажрибали фан ўқитувчилари жалб этилади. Бунда ҳам маҳаллий ҳокимликлар, ота-оналар ва жамоат ташкилотлари вакиллари иштирок этадилар.

Мазкур тадбирнинг 3-босқичи барча вилоятлар, Тошкент шаҳри ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси бўйича ўқув йилининг

сўнгги ойида бўлиб ўтади. Бунда шаҳар ва туманларда голиб деб топилган ҳамда 3-босқичга тавсия этилган ўқитувчилар иштирок этади. Уларнинг дарс ишланмалари ишчи гуруҳи томонидан ўрганилиб, голиблар республика босқичида иштирок этиш учун тавсия қилинади. Республика босқичи фанлар бўйича эксперт гуруҳлари томонидан ўрганилади ва 16 нафар ўқитувчи тақдим этган дарс ишланмалари яхши деб топилб, омallashtirилиши учун тавсия этилади.

Куйида фестивалнинг Республика босқичида голиб деб топилган Тошкент вилояти 9-умумтаълим мактаби бошланғич синф ўқитувчиси Л.Иброҳимованинг 1-синф учун меҳнат дарси ишланмасини намуна сифатида эътиборингизга ҳавола қиламиз.

Dars mavzusi: uzunchoq qilib qirqilgan rangli qog'ozdan archa o'yinchoqlarini yasash.

Dars maqsadi: o'quvchilarga qog'ozdan turli xil o'yinchoqlar yasashni o'rgatish.

Vazifalari:

Ta'limiy:

— uzunchoq qog'ozdan shakllar yasash texnikasi bilan tanishtirish;

— uzunchoq qog'ozda chizg'ich orqali kerakli bo'lgan o'lchovni belgilashga o'rgatish;

— qog'oz bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash;

— ishni bajarishda berilgan namuna asosida nazorat qilib borishni mashq qildirish.

Tarbiyaviy:

O'quvchilarda ishni sabr-toqat bilan yakuniga yetkazish, materiallar va asboblardan ehtiyotkor bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularni mehnat-sevarlikka, har bir ishga e'tibor bilan qarash, jamoada ishlashga o'rgatish, mas'uliyatli, estetik didga ega qilib voyaga yetkazish.

Rivojlantiruvchi:

Sensor doirasini shakllantirish, aniq, obrazli mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, fazoviy tasavvurni, konstruktorlik va ijodiy qobiliyatini yuksaltirish, xotira, xayol, tasavvur, diqqatini, nutqini o'stirish.

O'qituvchi ish joyining jihozlanishi: namuna, chizma, asboblardan (qaychi, qog'oz, qalam, chizg'ich, yelim), yo'riqnoma — yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi xarita, terminlar yozilgan kartochkalar (qog'ozni buklay), rejalashtirish kartochkasi («belgilash», «qirg'ish», «elimlash»).

O'quvchilar ish joyining jihozlanishi: latta, yelim, mo'yqalam, rangli qog'oz, rangli karton, qaychi, qalam, lastik, chizg'ich, arqoncha.

Dars rejasi:

I. Tashkiliy qism.

II. Dars mavzusini va maqsadini e'lon qilish.

III. Ish joyini tayyorlash.

IV. Amaliy ishga tayyorgarlik ko'rish:

— namunaning tuzilishini tahlil qilish;

— texnik hujjatni tahlil qilish;

— ishni bajarish yo'llarini o'rganish.

V. Dars yakuni

Darsning borishi.

OCHIQ DARSLAR FESTIVALI

unda o'qituvchining ish tajribasi atroflicha o'rganiladi

Dars bosqichlari:

Tashkiliy qism.

Salomlashish.

O'qituvchi: — Qarab ko'ring-chi, hamma narsangiz dars uchun tayyormi: rangli qog'oz, yelim, qalam, chizg'ich, latta, mo'yqalam, rangli karton, qaychi, lastik, arqoncha, kleyonka.

Mavzuni e'lon qilish, maqsadni belgilash.

O'qituvchi: — Bolalar, yaqinda qanday bayram bo'ladi?


O'quvchilar: — Yangi yil, archa bayrami.

O'qituvchi: — Bu bayram qaysi faslda bo'ladi?

O'quvchilar: — Qish faslida.

O'qituvchi: — To'g'ri, qishda hammayoq oppoq qor bilan qoplanadi. Bolalar qorbobo yasaydi. Chanada uchadilar. Archa bayramini o'tkazishga tayyorgarlik ko'radilar.

Siz o'yinchoqlar yasashning ko'p yo'llarini bilasiz. Bugun ham biz siz bilan uzunchoq qog'ozdan o'yinchoq yasashni o'rganamiz. Mana, qarang, uzunchoq qog'ozdan qanday o'yinchoqlar yasash mumkin?!



Izoh: o'qituvchi uzunchoq qog'ozdan qilingan har xil o'yinchoqlarni namoyish qiladi.

Bugun qanday o'yinchoq yasaymiz?

(Ish joyini tayyorlash)

O'qituvchi: — Aтроfimizda har xil xavfli buyumlar bor. Agar texnika xavfsizligiga rioya qilinmasa, jarohat olishimiz yoki o'rtog'imizni yaralashimiz mumkin. Dostkada ilingan so'zlarni o'qing-chi:

O'quvchilar: — Nina, qaychi va pichoq tipratikon ignalaridek og'riqli sanchiladi!

O'qituvchi: — Bugun darsda



hammamiz birgalikda ishlaymiz. Sizning do'stligingiz, birdamligingiz bugun juda kerak bo'ladi!

Amaliy ishga tayyorgarlik: (namuna tuzilishini tahlil qilish)

O'qituvchi: — Keling, sanab

chiqamiz: — o'yinchoq nechta bo'lakdan (detallardan) yig'ilgan?

O'quvchi: — Ikkita!

O'qituvchi: — Ularni taqqoslang.

O'quvchi: — Ularning rangi va o'lchamlari har xil.

O'qituvchi: — Qanday birlashtirilgan?

O'quvchi: — Harakatsiz. Yelim bilan yelimgangan.

O'qituvchi: — Buyumni yasashni qog'ozda bo'laklarni belgilab chiqishdan boshlaymiz. Keyin ularni qirqib, kerakli ketma-ketlikda yelimgab chiqamiz.

Izoh: o'qituvchi dostkaga "belgila", "qirg", "elimla", "bezat" yozuvlari bor kartochkalarni iladi.

Amaliy ish

O'qituvchi: — Hozir qog'oz bo'laklarini belgilab chiqamiz, lekin alohida emas, hammamiz birgalikda. To'rt o'quvchi 5ta bir xil rangdagi bo'lakni belgilab chiqadi, yana to'rt o'quvchi boshqa rangli bo'laklarni. Keyin qog'oz bo'laklarini bo'lishib chiqamiz. Har birimizda 5ta har xil rangli bo'lak bo'lishi, ranglar bir-biriga mos kelishi kerak. Aks holda o'yinchoq chiroyli chiqmaydi.

Qog'ozning orqa tomonida qalam va chizg'ich yordamida bo'laklarni belgilab chiqamiz. Yuqori chap burchagidan o'ng tomonga qarab 29 sm. belgilaymiz, nuqta qo'yamiz. Burchakdan pastga 1 sm. belgilab, nuqta qo'yamiz. 29 sm.dan yana 1 sm. belgilab, nuqta qo'yamiz, nuqtalarni birlashtiramiz. Pastga qarab yana chap va o'ng tomonlarga 1 sm. o'lchab, nuqta qo'yamiz, birlashtiramiz. Shunday qilib

hamma 5ta bo'lakni belgilab chiqamiz.

Sizlar bilan tuzgan rejamizga asosan endi kesamiz. To'g'ri chiziq bo'yab tekis kesish uchun qaychini oxirigacha yopmasdan kesamiz. Kesish paytida to'g'ri chiziqdan chiqib ketmaslikni kuzatib turish kerak. Barakalla! Endi namunaga qarab bo'laklarni yelimlaymiz.

Izoh: o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda dostkada bajaradi.

Tekshirish va baholash

O'qituvchi: — Hamma o'yinchoqni yasab bo'ldimi? Birinchi qator o'yinchoqlaringizni ko'tarib hammaga ko'rsating (2- va 3-qatorlar ham galma-gal o'yinchoqlarini ko'tarib, ko'rsatadilar). Qaranglar, o'yinchoqlarimiz juda chiroyli, rang-barang bo'libdi. Ular bilan sinfimizni bezatishimiz mumkin. Mana, siz qog'oz bo'laklaridan o'yinchoq yasashni o'rganib oldingiz!

Izoh: O'qituvchi qatorlar orasidan yurib o'quvchilarni baholab chiqadi.

Darsning yakuni

Bugun nima bilan shug'ullandik? Yangi mavzudan nimalar haqida bilib oldingiz, degan savollar orqali qisqa savol-javob o'tkaziladi va uy vazifasi beriladi.

Respublika ta'lim markazi
Metodik xizmat va pedagoglarning malakasini oshirishni muvofiqlashtirish bo'limi

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги томонидан таълим қозоқ тилида олиб бориладиган умумий ўрта таълим мактаблари учун 2011-2012 ўқув йилида фойдаланишга тавсия этилган дарслик ва ўқув қўлланмалар рўйхати

T/p	Дарслик ва ўқув қўлланма номи	Муаллифлар	Нашр этилган йили	Таъминланиш ҳолати
1-синф				
1	Алифбе (Элппе)	А.Исабоев ва б.	2011	беғул
2	Ўзув дафтари	М.Омаров ва б.	2011	беғул
3	Она тили (Ана тілі)	Муаллифлар гуруҳи	2011	беғул
4	Ўқиш китоби (Оқу китаби)	Муаллифлар гуруҳи	2011	беғул
5	Математика	М.Аҳмедов ва б.	2011	беғул
6	Математика дафтари	М.Жумаев ва б.	2011	беғул
7	Атрофимиздаги олам	А.Григорьянц	2011	беғул
8	Одобнома	Муаллифлар гуруҳи	2011	беғул
9	Тасвирий санъат	Р.Ҳасанов	2011	беғул
10	Муסיқа	Ҳ.Нурматов ва б.	2011	беғул
11	Жисмоний тарбия	К.Маҳкамжонов ва б.	2011	беғул
12	Меҳнат таълими	Муаллифлар гуруҳи	2011	
13	Конституция алифбоси	О.Каримова	2008	кутубхона фонди
2-синф				
1	Ўзбек тили	Р.Толипова ва б.	2010	ижара
2	Она тили (Ана тілі)	М.Омарулы	2010	ижара
3	Ўқиш китоби (Оқу китаби)	М.Омарулы	2010	ижара
4	Русский язык	Р.Талипова ва б.	2010	ижара
5	Математика	Н.Бикбаева ва б.	2010	ижара
6	Атрофимиздаги олам	П.Ғуломов ва б.	2010	ижара
7	Одобнома	Қ.Абдуллаева ва б.	2010	ижара
8	Муסיқа	Ш.Жанайдаров ва б.	2010	ижара
9	Тасвирий санъат	М.Исақова ва б.	2010	ижара
10	Жисмоний тарбия	К.Маҳкамжонов ва б.	2010	ижара
11	Конституция алифбоси	О.Каримова	2007,2008	кутубхона фонди
3-синф				
1	Ўзбек тили	А.Рафиев ва б.	2010	ижара
2	Она тили (Ана тілі)	М.Омарулы ва б.	2010	ижара
3	Ўқиш китоби (Оқу китаби)	М.Омарулы ва б.	2010	ижара
4	Русский язык	Р.Талипова ва б.	2010	ижара
5	Математика	Н.Бикбаева ва б.	2010	ижара
6	Табиатшунослик	А.Баҳромов	2010	ижара
7	Одобнома	О.Ҳасанбоева ва б.	2010	ижара
8	Тасвирий санъат	М.Исақова ва б.	2010	ижара
9	Муסיқа	Ш.Жанайдаров ва б.	2010	ижара
10	Жисмоний тарбия	К.Маҳкамжонов ва б.	2010	ижара
11	Конституция алифбоси	О.Каримова	2007,2008	кутубхона фонди
4-синф				
1	Ўзбек тили	А.Рафиев ва б.	2011	ижара
2	Ўқиш китоби (Оқу китаби)	М.Омарулы ва б.	2011	ижара
3	Она тили (Ана тілі)	М.Омарулы	2011	ижара
4	Русский язык	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
5	Математика	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
6	Табиатшунослик	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
7	Одобнома	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
8	Муסיқа	О.Иброҳимов ва б.	2011	ижара
9	Жисмоний тарбия	К.Маҳкамжонов ва б.	2011	ижара
10	Меҳнат таълими	Муаллифлар гуруҳи	2011	
11	Тасвирий санъат	Муаллифлар гуруҳи	2011	
12	Конституция алифбоси	О.Каримова	2007,2008	кутубхона фонди
5-синф				
1	Ўзбек тили	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
2	Қозоқ тили (Қазақ тілі)	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
3	Адабиёт (Эдебиет)	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
4	Русский язык	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
5	Инглиз тили "Fly High English"	Л.Жўраев ва б.	2011	ижара
6	Немис тили «Deutsch»	М.Қиёмова ва б.	2011	ижара
7	Француз тили "Bonjour la France"	А.Носиров ва б.	2011	ижара
8	Тарихдан ҳикоялар	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
9	Ватан туйғуси	Х.Султонов ва б.	2011	ижара
10	Математика	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
11	Ботаника	Ў.Пратов ва б.	2011	ижара
12	Информатика	Б.Болтаев ва б.	2008	ижара
13	География	П.Ғуломов ва б.	2011	ижара
14	Меҳнат таълими	Муаллифлар гуруҳи	2011	
15	Тасвирий санъат	Муаллифлар гуруҳи	2011	
16	Муסיқа	А.Мансуров	2011	
17	Жисмоний тарбия (5-6-с.)	Т.Усмонхўжаев ва б.	2011	
18	Конституция оламига саёҳат	В.Костецкий ва б.	2008	кутубхона фонди
6-синф				
1	Ўзбек тили	Р.Толипова ва б.	2009	ижара
2	Қозоқ тили (Қазақ тілі)	А.Исабаев ва б.	2009	ижара
3	Адабиёт (Эдебиет)	Е.Абдувалитов ва б.	2009	ижара
4	Русский язык	Р.Талипова ва б.	2009	ижара
5	Инглиз тили "Fly High English"	Л.Жўраев ва б.	2009	ижара
6	Немис тили «Assalom, Deutsch!»	Н.Суханова ва б.	2009	ижара
7	Француз тили	З.Абдушукурова ва б.	2009	ижара
8	Математика	М.Мирзааҳмедов ва б.	2009	ижара
9	Физика	Н.Турдиев	2009	ижара
10	Тарих	А.Саъдуллаев ва б.	2009	ижара
11	Ватан туйғуси	Х.Султонов ва б.	2011	ижара
12	Ботаника	Ў.Пратов ва б.	2009	ижара
13	География	А.Соатов ва б.	2009	ижара
14	Информатика	Б.Болтаев ва б.	2009	ижара
15	Конституция оламига саёҳат	В.Костецкий ва б.	2008	кутубхона фонди
16	Муסיқа	С.Бегматов ва б.	2008	кутубхона фонди
17	Жисмоний тарбия (5-6-с.)	Т.Усмонхўжаев ва б.	2005	кутубхона фонди
7-синф				
1	Ўзбек тили	Р.Толипова ва б.	2009	ижара
2	Қозоқ тили (Қазақ тілі)	Д.Айтбаев ва б.	2009	ижара
3	Адабиёт (Эдебиет)	Қ.Сейданов ва б.	2009	ижара
4	Русский язык	Р.Талипова ва б.	2009	ижара
5	Инглиз тили "Fly High English"	Л.Жўраев ва б.	2009	ижара
6	Немис тили «Assalom, Deutsch!»	Н.Суханова ва б.	2009	ижара
7	Француз тили	В.Бухин ва б.	2009	ижара
8	Ўзбекистон тарихи	А.Мухаммаджонов	2009	ижара

9	Жаҳон тарихи	Т.Салимов ва б.	2009	ижара
10	Алгебра	Ш.Алимов ва б.	2009	ижара
11	Геометрия	А.Аъзамов ва б.	2009	ижара
12	Физика	П.Ҳабибуллаев ва б.	2009	ижара
13	Кимё	И.Асқаров ва б.	2009	ижара
14	Зоология	О.Мавлонов	2009	ижара
15	География	П.Ғуломов ва б.	2009	ижара
16	Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари	М.Қаршибоев ва б.	2011	ижара
17	Информатика	Б.Болтаев ва б.	2009	ижара
18	Конституция оламига саёҳат	В.Костецкий ва б.	2008	очик савдо
19	Муסיқа	О.Иброҳимов ва б.	2008	кутубхона фонди
20	Жисмоний тарбия (7-8-с.)	Т.Усмонхўжаев ва б.	2008	кутубхона фонди
8-синф				
1	Ўзбек тили	Ҳ.Мухиддинова ва б.	2010	ижара
2	Қозоқ тили (Қазақ тілі)	Д.Айтбаев ва б.	2010	ижара
3	Адабиёт (Эдебиет)	Е.Абдувалитов ва б.	2010	ижара
4	Русский язык	Р.Талипова ва б.	2010	ижара
5	Инглиз тили «Fly High English»	Л.Жўраев ва б.	2010	ижара
6	Немис тили «Assalom, Deutsch!»	Н.Суханова ва б.	2010	ижара
7	Француз тили «Le nouveau voyage en France»	З.Абдушукурова ва б.	2010	ижара
8	Ўзбекистон тарихи	Қ.Усмонов ва б.	2010	ижара
9	Жаҳон тарихи	У.Жўраев ва б.	2010	ижара
10	Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи асослари	О.Каримова ва б.	2010	ижара
11	Иқтисодий билим асослари	Э.Сариқов ва б.	2010	ижара
12	Алгебра	Ш.Алимов ва б.	2010	ижара
13	Геометрия	А.Раҳимқориев	2010	ижара
14	Физика	П.Ҳабибуллаев ва б.	2010	ижара
15	Кимё	И.Асқаров ва б.	2010	ижара
16	Одам ва унинг саломатлиги	Б.Аминов ва б.	2010	ижара
17	География	П.Мусаев ва б.	2010	ижара
18	Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
19	Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари	Р.Қўчқор ва б.	2011	ижара
20	Чизмачилик	И.Раҳмонов	2010	ижара
21	Жисмоний тарбия (7-8-с.)	Т.Усмонхўжаев ва б.	2008	кутубхона фонди
9-синф				
1	Ўзбек тили	А.Рафиев	2010	ижара
2	Қозоқ тили (Қазақ тілі)	Қ.Жумаев ва б.	2010	ижара
3	Адабиёт (Эдебиет)	С.Омонжолов ва б.	2010	ижара
4	Русский язык	Ю.Азизханова ва б.	2010	ижара
5	Инглиз тили «Fly High English»	Л.Жўраев ва б.	2010	ижара
6	Немис тили «Deutsch»	М.Дадахўжаева ва б.	2010	ижара
7	Француз тили «D'un Etat a l'autre»	С.Раҳмонов ва б.	2010	ижара
8	Ўзбекистон тарихи	С.Тиллаев ва б.	2010	ижара
9	Жаҳон тарихи	М.Лафасов ва б.	2010	ижара
10	Конституциявий ҳуқуқ асослари	В.Костецкий ва б.	2010	ижара
11	Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари	О.Мусурмонова ва б.	2011	ижара
12	Иқтисодий билим асослари	Э.Сариқов ва б.	2010	ижара
13	Алгебра	Ш.Алимов ва б.	2010	ижара
14	Геометрия	Б.Ҳайдаров ва б.	2010	ижара
15	Физика	П.Ҳабибуллаев ва б.	2010	ижара
16	Кимё	И.Асқаров ва б.	2010	ижара
17	Биология. Цитология ва генетика асослари	А.Зикирйев ва б.	2010	ижара
18	Жаҳон иқтисодий-ижтимоий географияси	А.Қаюмов ва б.	2010	ижара
19	Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари	Муаллифлар гуруҳи	2011	ижара
20	Чизмачилик	И.Раҳмонов	2010	ижара
21	Жисмоний тарбия	Т.Усмонхўжаев ва б.	2008	кутубхона фонди
10-синф				
1	Ўзбек тили	М.Тўхтамирзаев	2007	кутубхона фонди, очик савдо
2	Қозоқ тили	Д.Айтбаев ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
3	Қозоқ адабиёти	С.Қирабаев ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
4	Русский язык	Р.Талипова ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
5	Инглиз тили	Ж.Жалолов	2007	кутубхона фонди, очик савдо
6	Немис тили	Б.Зардинова	2007	кутубхона фонди, очик савдо
7	Француз тили	З.Бухин ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
8	Ўзбекистон тарихи	Д.Алимова ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
9	Жаҳон тарихи	Г.Ҳидоятлов	2007	кутубхона фонди, очик савдо
10	Ҳуқуқшунослик	В.Костецкий ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
11	Иқтисодий ва бизнес асослари	Э.Сариқов ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
12	Алгебра ва анализ асослари	Ш.Алимов ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
13	Геометрия	А.Погорелов ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
14	Физика	М.Шахмаев ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
15	Кимё	Г.Рудзитис ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
16	Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари	А.Абдуқодиров	2007	кутубхона фонди, очик савдо
17	Умумий биология	Ё.Тўракулов ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
18	Амалий география	А.Рафиқов ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги томонидан таълим қозоқ тилида олиб бориладиган умумий ўрта таълим мактаблари учун 2011-2012 ўқув йилида фойдаланишга тавсия этилган дарслик ва ўқув қўлланмалар рўйхати

(Давоми. Боши 11-бетда.)

Т/р	Дарслик ва ўқув қўлланма номи	Муаллифлар	Нашр этилган йили	Таъминланиш ҳолати
19	Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари (10—11-с.)	Қ.Назаров ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
20	Чақириққача ёшларни тайёрлаш (10—11-с.)	Ҳ.Жўраев ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
21	Жисмоний тарбия (10—11-с.)	Т.Усмонхўжаев ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
11-синф				
1	Ўзбек тили	А.Рафиев	2005	кутубхона фонди, очик савдо
2	Адабиёт (Қазақ Эдебиеті)	М.Базарбаев ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
3	Қозоқ тили (Қазақ тілі)	К.Жидебаев ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
4	Русский язык	Р.Талипова ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
5	Инглиз тили	Ж.Жалолов ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
6	Немис тили	Б.Зардинова	2005	кутубхона фонди, очик савдо
7	Француз тили	З.Абдушукурова ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
8	Ўзбекистон тарихи	Н.Жўраев	2005	кутубхона фонди, очик савдо

9	Жаҳон тарихи	Г.Ҳидоятлов	2005	кутубхона фонди, очик савдо
10	Ҳуқуқшунослик	В.Костецкий ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
11	Иқтисодиёт ва бизнес асослари	Э.Сариқов ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
12	Алгебра ва анализ асослари	Ш.Алимов ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
13	Геометрия	А.Погорелов	2005	кутубхона фонди, очик савдо
14	Физика	Н.Шахмаев ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
15	Астрономия	М.Мамадазимов	2005	кутубхона фонди, очик савдо
16	Кимё	А.Муфтахов	2004	кутубхона фонди, очик савдо
17	Умумий биология	А.Фафуров ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
18	Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари	Б.Болтаев ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
19	Инсон ва жамият	Н.Жўраев ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
20	Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари (10—11-с.)	Қ.Назаров ва б.	2007	кутубхона фонди, очик савдо
21	Жисмоний тарбия (10—11-с.)	Т.Усмонхўжаев ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо
22	Чақириққача ёшларни тайёрлаш (10—11-с.)	Ҳ.Жўраев ва б.	2005	кутубхона фонди, очик савдо

Гулистон давлат университети доценти, педагогик инновация маркази раҳбари, Халқ таълими аълочилиги сифатида катта иқтидор ва салоҳият соҳиби эканлигини илмий-педагогик жамоатчилик яхши билади. У танти, жўмард олим, қатъиятли устоз, фанда ўз фикри, нуқтаи назарига эга бўлган илм соҳиби сифатида барчаннинг эътиборини қозонган инсон. Унинг педагогика соҳасидаги илмий



Хабидулло Абдураимовнинг аксарият ишлари айнан таълимга инновацияларни татбиқ этишга қаратилди. "Бугун ривож-

Ta'lim fidoyilari

ишлар натижасида университет ўқитувчиларининг мустақил таълим технологияси ва уни такомиллаштириш, ҳамкорлик педагогикаси ва модулли технологиялар, дидактик ва ролли ўйинлар йўналишида таълимни модернизациялаш борасида эришаётган ютуқлари, уларнинг олий педагогик таълим жараёнида бевосита ҳал этилаётган турли

МАЪРИФАТГА БАХШИДА УМР

ишлари айнан амалиёт бағрида пишиб етилган. Сирдарё вилоятининг Ховос туманидаги 7-умумтаълим мактабида ўқитувчи, тарбиявий ишлар бўйича директор ўринбосари, директор вазифасини бажарувчи лавозимида ишлаган ёш, ғайратли, жўшқин ғоялар ва ташаббуслар билан қайнаб-тошиб юрадиган Хабибулло 1978 йили Сирдарё вилоятида ўтказилган Республика илмий-амалий анжуманида ўқитувчилик касби, унинг долзарб муаммолари ҳақида қилган маърузаси билан илмий-педагогик жамоатчилик эътиборига тушди. Унинг кейинги ҳаёти бевосита илмий-педагогик тадқиқотларни режалаштириш, амалга ошириш, кейинчалик бу соҳада ёшларга илмий раҳбарлик қилишдан иборат бўлди. 1984 йили "Ўқувчи ва талабаларни ўқитувчилик касбида йўналтиришда педагогика олий ўқув юрти ва мактабнинг изчиллиги" мавзусида номзодлик диссертациясини ёқлади.

ланган давлатлар (АҚШ, Англия, Германия, Франция, Япония ва б.) ва жумладан, ҳамдўстлик давлатлари таълим тизимида инновацион технологиялар татбиқи ҳамкорликнинг янги босқичини бошлаб бермоқда", дейди у. Хабибулло ака Гулистон давлат университети педагогик инновация маркази раҳбари сифатида марказ лабораториялари томонидан университетда таҳсил олаётган 4000 дан ортук талабанинг ақлий салоҳияти, ижтимоий фаоллиги ва ташкилотчилик қobiliятларини махсус методикалар(социометрия, Ж. Равеннинг "Муракблашиб борувчи матрицалар" тести, Гилфорд "Социал интеллект диагностикаси")га оид хулоса ва тавсиялар асосида бойитиб, ривожлантириб боришга қаратилган амалий-педагогик фаолиятида тобора катта ютуқларни қўлга киритмоқда. Ушбу марказда уюшқоқлик билан олиб борилаётган

муаммо ва қийинчиликлари марказ қошида ўтказилаётган педагог ва талабаларнинг давра суҳбатлари ҳамда семинар-тренингларида аниқлашиб, қизгин муҳокама ва мунозара жараёнида пишитилиб, институтда таълим жараёни юксалишига хизмат қилмоқда. Устознинг бу соҳада яратилган икки йирик монографияси "Талабаларнинг ўқув мотивларини шакллантириш" (2009 й.), "Касбий педагогик фаолият" (2010 й.), дарс таҳлили-ю муаммоли таълимни ташкил этиш йўлларида тортиб, ўқувчиларни касб танлашга йўналтириш-у педагогик амалиёт ва уни ташкил этишгача бўлган кенг муаммолар доирасини қамраб олган қўлланмалари, шуҳасиз, ўзбек педагогикасига қўшилган салмоқли ҳисса, десак муболага бўлмайди. **У.ТОЛИПОВ, Т.Н.ҚОРИ НИЁЗИЙ** номидаги **ЎзПФИТИ** директори **ўринбосари,** п.ф.д. профессор

ИЖОДКОР — ШИФОКОР КИТОБИ ТАҚДИМОТИ

Олий тоифали жарроҳ Илёс Юнусовнинг «Шукрона» номли китобининг тақдимот маросими Тошкент тиббиёт академиясида бўлиб ўтди. Тадбирда таълим муассасаси маънавият ва маърифат ишлари бўйича проректори, профессор Турдикул Бобомуродов ижодкорнинг илмий-педагогик ва шифокорлик фаолиятига алоҳида тўхталди. Ўзбекистон Ёзувчилар

уюшмаси ҳамда бир қанча таҳририятлардан таклиф этилган меҳмонлар сўзга чиқиб, мазкур шеърини тўпламда самимият билан баён қилинган фикр-мулоҳазалар, шеърини маслаҳатларнинг ҳар бир сатрида соф туйғулар, фалсафий мушоҳадалар акс этганини таъкидлашди.

Анвар ҚОБИЛОВ, «Ma'rifat» мухбири

Фан ойликлари ўқувчиларнинг муайян бир фандан олган билимларига баҳо берувчи, мустаҳкамловчи, қолаверса, фанга бўлган муҳаббатини оширувчи жараён. Айни пайтда республикамиздаги умумий ўрта таълим мактабларида миллий ғоя туркумига кирувчи фанлар ойлиги давом этмоқда. Фан ойлиги доирасида турли эрталиклар, очик дарслар ва мусобақалар ташкил этилиб, нафақат ўқувчилар, балки ўқитувчиларнинг ҳам билими



синф ўқитувчилари иш-тироқ этишди. — Ҳар бир педагог ўз ўқувчилари қалбида фанларга муҳаббат уйғотиши

М.Ҳожиметова, Б.Фафурованинг очик дарслари кузатилди. Янги педагогик технологиялар асосида ташкил этилган ма-

СЕМИНАРЛАР ИЗЛАНИШГА УНДАМОҚДА

синовдан ўтмоқда, янги маълумотлар билан бойимокда. Мирзо Улугбек туманидаги 222-мактабда "Ўқувчилар билим самарадорлигини оширишда инновацион технологияларнинг аҳамияти" мавзусида семинар бўлиб ўтди. Унда таълимнинг пойдеворини бунёд этувчи бошланғич

ва билим самарадорлигини ошириш йўллари ни излаши керак, — деди Тошкент шаҳар ХТББ методика маркази бошланғич таълим методисти Д.Тошмухаммедова. — Бунда инновацион технологиялардан фойдаланиш яхши натижа беради. Семинарда Д.Солиева, Н.Нишонова,

шгулотлар кузатувчилар томонидан юқори баҳоланди. Фан ойлиги Учтепа тумани мактабларида ҳам ўзгача руҳда ташкил этилаёттир. 193-мактабда бўлиб ўтган очик дарслар фестивали учтепалик бошланғич синф ўқитувчиларининг янгидан-янги марраларни забт этиши учун замин яратса, ажабмас. Чунки бу ердаги бир-бирини такрорламайдиган, ижодий очик дарслар ташриф буюрганларни фанларга ижодий ёндашишга чорлаши, табиий. Шунингдек, фан ойлиги доирасида ташкил этилган кўргазма ҳам йиғилганларда катта қизиқиш уйғотди. **Мухбиримиз Бурҳон РИЗОКУЛОВ** олган суратлар.



МОТОЦИКЛМИ ЁКИ АВТОБУС?

Хиндистонда йўловчи сизими бўйича беназир бўлган «Royal Enfield Bullet C1500» мотоцикли яратилган. Хиндистондаги «Торнадо» номли ҳарбий ташкилот ушбу транспорт воситасидан биринчи бўлиб фойдаланди. Бу синов Бангалор ҳарбий-ҳаво кучларига қарашли базада бўлиб ўтган. Қизиқарлиси, бу мотоциклда бир вақтнинг ичида 54 нафар киши ўз манзилига етиб олиши мумкин. Бу ҳақда «IndianCarsBikes» порталида хабар берилди.



469» 32 киши билан ҳаракатланиши мумкин. «Kia Spectra» автомобили эса 23 нафар йўловчини ўз манзилига етказиб қўя олади.

Мазкур антиқа транспорт воситаси «Royal Enfield Bullet» компанияси томонидан ишлаб чиқарилган бўлиб, беш куб-ли двигатель билан таъминланган. Мотоциклда металл зинапоя мавжуд.

Бундан олдин сизими бўйича рекорд ўрнатган мотоциклга 48 нафар киши чиқиши мумкин эди. Олдинги авлод ҳам айнан «Royal Enfield Bullet» томонидан ишлаб чиқилган. Эътиборлиси, бундай кўп кишилиқ транспорт воситалари орасида автомобиллар ҳам бор. Масалан, «УАЗ-3




КЕКСАЛАР УЧУН КОМПЬЮТЕР

Даниянинг «Дюка Пи-Си» («DukaPC») компанияси томонидан ёши катта ва эндигина информацион технологиялар билан ишлашни ўрганаётган инсонлар учун махсус компьютер — десктоп яратилди. Унда ишлаш жуда ҳам осон бўлиб, бунинг учун компьютерни қувватга улаш кифоя. Содда интерфейс ёрдамида эса Интернетга улашиш, электрон манзилга келган хатларни текшириш, янгиликлардан бохабар бўлиш ва шу каби амалларни бажариш мумкин. Янгилик ҳақида «Компьюлента» хабар берди.

Ишлаб чиқарувчиларнинг таъкидлашича, десктоп орқали Интернетга улашиш учун алоҳида тармоқ талаб этилмайди, чунки унга симсиз модем ўрнатилган. Қолаверса, дастурий компонентларни янгилаш ва бу билан боғлиқ муаммоларни компания мутахассислари масофадан туриб ҳал қилиши кўзда тутилган.

Техник таъминотга келсак, компьютер барча ёрдамчи қисмлар бир бўлиб йиғилган моноблок шаклида ишланган. Экрани сезувчан ва ҳажми 20 дюймга тенг, икки ядроли процессори 2 гигагерц частотада ишлайди, оператив хотираси 2 гигабайт, ускунага ўрнатилган қаттиқ диск ҳажми 320 гигабайтга тенг. Техник янги ускунанинг дастурий таъминоти «Windows 7 Home»га мослаштирилган. Ҳозирда компьютерларни кенг ишлаб чиқариш ва харидорларга тезкор етказиб бериш билан боғлиқ ишлар йўлга қўйилмоқда.




ҚАДИМИЙ ДЕЛЬФИН

Голландиялик олимлар Шимолий денгизда тахминан 2-3 миллион йил илгари Ердаги океанларда умргузаронлик қилган қадимий дельфиннинг бош суяги ва бир нечта тишларини топишди. «Деинси» («Deinsea») журналида топилма ҳақида батафсил маълумот берилган.

Тадқиқотчилар қадимий ҳайвонга «Platalearostrum hoekmani» номини беришди. Дельфиннинг бош суяги 2008 йили голландиялик денгизчи Альберт Хокман томонидан топилгани боис унинг исмидан денгиз ҳайвонининг илмий номи учун фойдаланилган.

Бош суягининг ҳажмидан келиб чиқиб қадимий ҳайвоннинг ташқи кўринишини тузишга ҳаракат қилинди. Тахминларга кўра, дельфин танасининг узунлиги 6 метрни ташкил этган, бош қисми йўғон ва шарсимон шаклда бўлган.

Тадқиқотчилар ҳозирда қадимий ҳайвон орқали денгиз жонзотлари эволюцияси қандай кечганини аниқлаш билан банд.



10 БАРОБАРГА КАМАЯДИ

Европа илмий ташкилотлари ва институтлари консорциуми «Ай-Би-Эм» («IBM») корпорацияси биргаликда «Стипер» тадқиқотчилик лойиҳасини бошлаши ҳақида эълон қилди. Ундан кўзланган мақсад эса кутиш ҳолати(режими)да энергия сарфлашини оптималлаштириш ва рақамли электрон техника воситаларининг қувват сарфлашини 10 баробарга камайтиришдир. «Риан.ру» манбасида бу ҳақда эълон қилинди.

Лойиҳа Лозанна федерал политехника мактаби (Швейцария) ва компания раҳбарлигида амалга оширилади. Жараёнда 3 йил муддат ичида илмий излашлар олиб бориш ва ишланмаларни босқичма-босқич синаш режалаштирилган. Мутахассисларнинг сўзларига кўра, улар компьютер, телевизор, мобиль телефонлари, серверлар каби турли электрон ускуналарнинг ишлаш пайтидаги энергия сарфлашини пасайтириш усулларини такомиллаштиришга урғу беради. Шу билан бирга, олимлар кутиш режимида бўлган техника воситаларининг қувват сарфини нолга тенглаштиришни ҳам кўзлаяпти.

— Ташаббус муваффақиятини бир қанча технологиялар таъминлашига умид боғлаяпмиз, — деди тадқиқотчилар раҳбари Хейке Рил. — Хусусан, компаниянинг Цюрихдаги лабораторияси ва қатор Европа тадқиқотчилик институтларида истиқболли ҳисобланган ишланма устида меҳнат қилинмоқда. Бу — ишчи кучланиши 0,5 вольтдан ошмайдиган тунелли дала транзисторлари бўлиб, уларни кенг фойдаланишга 2015 йилдан киритиш мўлжалланмоқда.

Электрон ускуналарнинг энергия сарфлашини пасайтиришининг устунликлари кўп эканини тадқиқотчилар таъкидлашган. Биринчидан, бунда қувват тежалади. Иккинчидан, мобиль ускуналарнинг ишлаш муддатини узайтириш мумкин.

Айни пайтда компания мутахассислари электрон ускуналардаги замонавий транзисторлар энергияни тежаш имконини яратмаслигини ҳам таъкидлаяпти. Эътиборлиси, ҳатто ўчирилган ҳолатда ҳам электрон ускуналардаги қувват сарфланади. Халқаро энергетика агентлиги берган маълумотларга кўра, одатий турар жойларда сафрланадиган энергиянинг тахминан 15 фоизи электрон ускуналар учун сарфланади. Тахминларга қараганда, 2022 йилга келиб, бу кўрсаткич икки, 2030 йилда эса уч баробарга ошиши кутилмоқда. Олимларнинг айтишича, айнан шу сабаб электрон ускуналар учун сарфланадиган энергияни имкон қадар тежаб ишлатиш бугун долзарб масалага айланган.

Наргиза РУСТАМБЕКОВА тайёрлади.

МИННАТДОРЛИК ҲИССИ УЙҒОНСИН!


«Компьюлента» тарқатган хабарга кўра, миннатдорлик ҳисси инсон ҳаётини ўзгартириши, тўғрироғи, яхшилаши мумкин экан. Аммо атрофдагилардан миннатдор бўлиб яшаш учун кучли ирода ва тартиб-интизом зарур бўлади. Солиштириш орқали шу нарса маълум бўлдики, одамлардан рози бўлиб яшаш худди жисмоний тарбия билан шугулланган кишилардек тетик ва соғлом бўлишда аҳамиятли ўрин тутаяди.

Бундан ташқари, инсонлар кек сақламай, кечиримли бўлса, иш жараёнида уларга қувонч ва иштиёқ ёр бўлади, келажакка ижобий назар билан қарашади.

Шунингдек, кўнглимизга яқин ва таниш бўлган инсонлар билан бирга ишлаш ҳам кунимизнинг ёқимли ва мазмунли тарзда ўтишига туртки бўлади.

Бундай фикрларни «Миннатдорлик ҳақидаги янги фан сизни бахтли қилса, мамнунмиз!» китоби муаллифлари Калифорния университети профессори Дэвис Роберт Эмонс ва Маями университети профессори Майкл Маккаллох ўртага ташлашди.

Уларнинг фикрига кўра, миннатдор бўлишни ҳам режалаштириб олиш зарур экан. Олимларнинг ўн йиллик излашлари натижаси бўлган китобда берилишича, «миннатдорлик» кундалигини тутиш зарур ва кимдан миннатдор бўлсангиз, ҳаммасини ёзиб бориш керак. Ҳар куни ким менга яхшилиқ қилди ва мен одамларга қандай яхшилиқ қилдим, деган саволларни бериш ҳам унинг шартларидан биридир. Энг қизиғи, яхшилиқни қадрловчи одам бўлман, деб ўз-ўзига сўз бериш ҳам яхши самара беради. Бу эса атрофдаги инсонлар ва уларнинг ҳаракатига фақат ижобий кўз билан қарашга имкон яратади.



БАЙРАМ МАЗМУНЛИ ЎТСИН

лим муассасаларида ушбу байрамни безатилган арча атрофида кутиб олиш аёнанага айланиб қолган. Шундай тадбирларда кўнглисиз ҳодисалар юз бермаслиги учун тайёргарлик кўриш жараёнида ёнғин хавфсизлиги қоидаларига амал қилиш муҳим аҳамиятга эга.

Yong'in xavfsizligi oyligi

Тадбирда институт ходимлари томонидан байрам ташкилотчилари, ўқитувчи ва ўқувчиларга арчани безатишда ва байрам дастурини тузишда риоя қилиниши лозим бўлган қуйидаги хавфсизлик қоидалари айтиб ўтилди:

- арча бинонинг биринчи қаватида, кенг хонада ўрнатилиши лозим ва хонанинг камида иккита чиқиш жойи бўлиши ва бу жойлар доим очик ҳолда бўлиши;
- мутасадди раҳбарлар байрам бошланиши олдидан ёритгичларнинг

созлигини, ёнғин ўчириш воситаларининг мавжудлиги ва ишга яроқлилигини текшириб кўришлари зарур;

— арчани безатишда 24 вольт қувватидан юқори бўлмаган электр чиқроқларидан фойдаланиш, бунда арча мустаҳкам қилиб ўрнатилган бўлиши лозим;

— арчани иситиш мосламаларидан узокроқда ўрнатиш лозим;

— байрам вақтида пиротехника воситаларидан фойдаланиш тақиқланади;

— болаларни арча атрофида ва арча ўрнатилган хонада қаровсиз қолдириш мумкин эмас.

Ёнғин хавфсизлиги қоидаларига риоя этиш орқали кириб келаётган Янги йил тадбирларини мазмунли ва мароқли ўтказган бўламиз.

Рихсивой СОБИРОВ,
Назокат САИДХОНОВА,
Фуқаро муҳофазаси институти ўқитувчилари

С.Раҳимов тиббиёт коллежи томонидан 2006 йилда Ҳайтов Бунёд Бозорович номига берилган К 358235 рақамли диплом йўқолганлиги сабабли **БЕКОР ҚИЛИНАДИ.**

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети маъмурияти ва Касаба уюшма қўмитаси, Журналистика факультети «Матбуот» кафедраси профессори Мухтор Худойкуловга рафиқаси **Атияхон ХУДОЙКУЛОВ**нинг вафоти муносабати билан таъзия изҳор этади.

Чилонзор туманидаги 90-мактаб маъмурияти ва жамоаси мактаб ўқитувчиси **Маҳфуза АХМАДЖОНОВА**нинг вафоти муносабати билан унинг оила аъзолари ва яқинларига таъзия билдиради.

«1980-йиллари Ўзбекистонда Наврўзга қарши хужум бошланганди. Одамлар эски удумларга берилишмасин, ҳар хил иримлар қилиб тоғлардаги қайрағочларга мато парчалари боғлашмасин деб, ўша дарахтларни кестириб ҳам ташлаганликларини эшитганмиз. Ўша дарахтлар остидан булоқлар чиқарди. Негадир қайрағочлар кесилгач, булоқларнинг ҳам «кўз»лари тўсилиб кетган.

Хурматли билимдонлар, сиз нима деб ўйлайсиз, нега айнан шундай бўлган?»

Бу — 2001 йил 11 март куни эфир юзини кўрган «Заковат» интеллектуал телеўйинининг илк саволи эди.

Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси, «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракати ва Ўзбекистон Миллий университети ҳамкорлигида ташкил этилган «Заковат» телеўйини мамлакатимизнинг иқтидорли, ташаббускор, bilimли, дунёқараши кенг ёшлари интеллектуал билимларини юзага чиқаришга хизмат қилувчи кўрсатувлардан бирига айланган.

Ҳозир пойтахтимизда «Заковат»нинг ўттизта билимдонлар жамоаси шаклланди. Уларнинг ҳаммаси ўйинга тайёр. Донишмандлар таъбирича, истаган одам заковатли бўлиши мумкин, бунинг учун у ё чуқур билимга эга бўлиши, ёки буни қатъий хоҳлаб, шунга яраша ҳаракат қилиши керак.

Ақл ёшда эмас, бошда. Ўтган тўққиз йил ичида юзлаб билимли, иқтидорли ёшлар ўз ақлу идрокини мана шу клубда чархлади. Телеэкран қаршисидаги миллионлаб мухлисларнинг ҳам дунёқараши кенгайиши, ҳаёт ва олам сирларини ўрганишларида «Заковат» дастури ўзига хос бир мактаб бўлди. Кўрсатувнинг шаклу шамоили бошқа дастурлардан тубдан фарқ қилади. Дастлабки йиллар-

да бу интеллектуал ўйинни эфирга олиб чиқиш учун иштирокчилар бир неча ойлаб тайёргарлик кўришган. Кўрсатув бошловчисининг эфирда кўринмасдан, гой-

и бона саволлар бериши ҳам томошабиннинг эътибори ва қизиқишини ортттиради. — Менинг бу кўрсатув бўйича гойибона устозим В.Ворошиловнинг «Феномен» китобида шундай фикрлар бор, «Кўринмас бошловчи сиймоси бу — образ, телевизион образ, — дейди кўрсатув бошловчиси ва муаллифи Абдурасул Абдуллаев. — Инсон ҳаёти давомида дуч келадиган муаммолар, яъни саволлар кўринмас ҳолатда, унинг қаршисида гавдаланади.» Бошловчининг қаердан туриб савол бериши муҳим эмас. — Саволга аниқ ва зудлик билан жавоб топиш муҳим. Нега «Заковат» Ўзбекистон телеканалда биринчи бўлиб ишни айнан шу кўринишда бошлади, деган савол туғилиши табиий. Чунки ёшларнинг дунёқара-

лқимиз азал-азалдан илмга, маърифатга интилганларни, билимдонларни қадрлайди, уларнинг суҳбатидан баҳраманд бўлишни истайди. Шунинг учун ҳам «Заковат»нинг давраси қисқа вақт

ида кенгайиб кетди. Кўрсатув иштирокчиларининг беллашувдан беллашувга интеллектуал жиҳатдан ўсиб боришига эришиш бу кўрсатув муваффақиятини таъминлади.

— Ўйинни мароқ билан кузатар эканман, шу нарсага амин бўлдимки, баъзида айнан ҳаётий тажриба, элимизнинг турмуши, урф-одатлари билан боғлиқ оддий саволлар ҳам учраб туриши эътиборимни тортиди, — дейди Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия институти ўқитувчиси Марғуба

Мавлонова. — Бундай пайтларда заковатчиларнинг жавоб тополмай «қотиб» қолган пайтлари ҳам бўлади. Назаримда, улар чуқур илмий мушоҳадаларга шунчалар ўрганиб қолишганки,

оддий саволлар жавобини ҳам мураккаблиқдан излайдилар.


— «Заковат» мухлислари ҳам телеижодкорлар, унинг бевосита иштирокчилари билан тенгма-тенг изланади. Чунки қизиқарли, мураккаб, эса қоладиган ва ибратли саволлар тузиб жўнатиш учун, шубҳасиз, улар ҳам тинимсиз ўқиб-ўрганишлари керак. Бу жиҳатдан кўрсатувни ҳақиқий оммабоп ва халқчил дастурлардан бири, дейиш мумкин.

— Ушбу кўрсатув биринчи навбатда ўз устимда мустақил ишлашни, фақат таҳсил олаётган соҳам бўйича қотиб қолмасдан, барча тармоқларни ўрганиш, интилишга ҳаракат қилишни ўргатди. Иккинчидан, «Заковат» менда ўзимга нисбатан пухта ишонч ва дадиллик ҳиссини пайдо қилди. Ўз фикримни тортинмасдан, борича рўй-рост айтишга, бир пайтнинг ўзида тезда фикрлаб, интеллектимни янада бойитишга кўмаклашди. 2011 йилдан умидларимиз жуда катта. Мақсадимиз — иқтидорли қизлар клубини янада кенгайтириш ва оммалаштириш, — дейди қизлар жамоаси сардори, Тошкент тиббиёт академияси 7-босқич талабаси Шаҳзода Раҳимова.

«Заковат» интеллектуал дастури йилдан йилга оммалашиб бормоқда. Унинг мухлислари шунчаки кузатувчи бўлиб қолмай, ўзларини ё томошабинлар, ёки клуб аъзолари сафида ҳис этиб, беллашувни ҳаяжон, иштиёқ билан кузатишларини ҳисобга оладиган бўлсак, «Заковат» — миллионлар ўйинидир.

Азима ҚИЁСОВА,
журналист

АҚЛ-ЗАКОВАТ ЎЙИНИ



Бола суяқларининг мустаҳкам, бўлиши, аввало, унинг кальций билан тўйинганлигига боғлиқ. Инсон суяқлари 20-25 ёшгача ривожланиб, 30 ёшида эса ўсишдан тўхтайдди. Шу сабабли бола организмни кичиклигиданоқ кальций моддаси билан мунтазам таъминлаб бориш зарур.

Маълумки, ёш организмда суяк тўқимаси доимий равишда янгилашиб туради, яъни эскиси ўрнига янгиси ҳосил бўлади. Болаларда суяк тўқималарининг янгилашиши 40-45 фоизни ташкил этса, катталарда 5-10 фоиз амалга ошади. Ёш бола организмда эски суяк тизимининг янги суяк тўқималари билан алмашилиши кальцийга тўйинганлигига боғлиқ. Бу мувозанат муҳим аҳамиятга эга, чунки унинг бузилиши суяқлардаги кальций моддасининг ювилиб кетиши ва суяқлар мўрт бўлиб қолишига олиб келади.

Кальций бола организмдаги хужайра, тўқима ҳамда юрак, нерв, мушакларнинг нормал ривожланишида ҳам муҳим омил саналади.

Остеопороз хасталигини даволашда кальцийга бой маҳсулотлар билан озикланиш муҳим.

Кальций миқдори юқори бўлган маҳсулотлар: пишлоқ, сут, қатик, творог, ловия, петрушка, кўк пиёз, сельдерей, кунжут, бодом,

КАЛЬЦИЙ БОЛА СУЯКЛАРИНИ МУСТАҲКАМЛАЙДИ

суяк, сардина, сазан балиқ, қаймоқ, тухум, қора бугдой, сули ёрмаси, нўхат, сабзи, балиқ икриси.

Кальций миқдори ўртача бўлган маҳсулотлар: салат барглари, қора нон, сарёғ, перловка, қарам, яшил нўхат, редиска, лавлагги, ўрик, олча, олхўри, узум, апельсин, қулупнай, оқ нон.

Болани ёшлигидан кальций моддаси билан таъминлаб бориш унинг ҳаракатчан, меҳнатсевар бўлиб улғайишига ҳам сабаб бўлади.

Баркамол авлодни тарбиялаш, унинг саломатлигини муҳофаза қилиш биз шифокорларга катта масъулият юклайди, — дейди травматология ва ортопедия илмий текшириш институти директори, профессор Мирзаҳаким Азизов. — Боланинг қадди-қомати, бўйи, суяк скелетининг ривожланишига бир қатор омиллар таъсир кўрсатади. Хусусан:

- Д витамин (кальциферол)нинг танқислиги;
- ичакда кальций сўрилишининг бузилиши ва сусайиши;
- ирсиятдан келиб чиққан муаммолар;
- бўй ва тана оғирлигининг камлиги;
- жисмоний ҳаракат қилмаслик;
- Д витаминининг етарли эмаслиги;

— бир қатор дори-дармонларни узоқ вақт қабул қилиш;

— чекиш, қаҳвани кўп миқдорда истеъмол қилиш салбий оқибатларга олиб келиши мумкин.

Кальций моддасини ўзлаштириш тўғридан-тўғри Д витаминига боғлиқ бўлиб, у ёш болаларда кальций моддасининг сўрилишини 30-80 фоизга оширади.

Инсоннинг ёши, вазни ва ҳаракатчанлигини инобатга олган ҳолда кальцийга бўлган эҳтиёжи ҳам турлича.

- 7-9 ёш — 700 мг.
- 10-12 ёш (ўғил бола) — 900 мг.
- 10-12 ёш (қиз бола) — 1200-1400 мг.
- 13-16 ёш (қиз бола) — 1200-1400 мг.
- 17-18 ёш — 1200 мг.
- 19-49 ёш — 1000 мг.
- 50 ва ундан юқори — 1000-1500 мг.

Юқорида айтганимиздек, овқат рационада кальций миқдори етарли бўлса, ёш бола суяк тизими тўлиқ ва соғлом ривожланади. Шунинг учун кальцийга бой озиқ-овқат маҳсулотларини кўпроқ истеъмол қилиш мақсадга мувофиқдир.

Остеопороз аломатлари ҳолсизлик, бош айланиши, юқумли касалликларнинг узоқ вақт давом этиши, яраларнинг секин битиши, оёқларда жимирлаш ва увишиш билан номоён бўлса-да, энг муҳим белгиларидан бири бу суяк синишидир.

Ёш болалар (4-5 ёшдаги) ўсиш жараёнида жароҳат олиш ҳоллари кузатилиши мумкин. Шу туфайли ота-оналар, аввало, уй шароитида оддий хавфсизлик қоидаларига риоя қилиши керак. Айниқса, кичик ёшдаги қизларга баланд пошнали оёқ кийимлар кийдирмаслик лозим. Шу билан бирга, уларнинг жисмоний бадантарбия машқларини доимий бажаришини назорат қилиш ижобий натижа беради.

Тоҳир ИБРОҲИМОВ,
тиббиёт фанлари доктори,
профессор

БЎЛ АЙЁР — ГОЛ ТАЙЁР!

Футбол — жозибали ўйин. Унинг сир-синоатини ўзлаштирган сари маҳоратингиз тобора ортиб бораверади. Тўпни шунчаки тепиш ёки шеригига ошириш ўрнига уни оёқ ёки бош, ҳатто елка қисмида ўйнатиб, ўзига хос чиройли хатти-ҳаракатларни амалга оширишни ҳам ўрганиш пайти келди. Буни қисқача қилиб, финт(алдамчи ҳаракат) деймиз.

Sport saboqlari



Мураббий Турсунбой АБДУРАИМОВ

Финтлар кўпроқ ҳужумчиларга мукамал ўргатилади. Чунки майдонда ўйнаётган ўн бир нафар спортчи орасида кўпроқ улар ҳал қилувчи зарбани бериши керак. Ўз дарвозасининг дахлсизлиги учун курашадиган ҳимоячиларнинг қаршичилигини енгиб ўтиш бугунги замонавий футболда жуда ҳам мураккаблик туғдирмоқда. Ҳужум уюштираётган жамоанинг комбинациясини бузиш ва тўпни олиб қўйишда ҳимоячилар уста бўлиб кетишди. Шунга қарамай, ҳужумчилар гол уришда давом этапти. Бунинг асосий сабабларидан бири — ҳужумчининг индивидуал дриблинглари ҳосиласи — финтлар бўлса, ажабмас.

Футболчининг бир неча сониялар ичида тезкорлик билан **кутилмаган, алдамчи ва айёрона** хатти-ҳаракати натижасида ҳимоячи ноқулай аҳволга тушиб қолади, то у мувозанатини тиклаб, вазиятни тўла тушунгунча, рақиб ўйинчисини тўпни шергига узатади ёки дарвозага йўллайди.

Финтларни шартли равишда икки гуруҳга ажратиш мумкин: содда ва мураккаб. Яна шундай финтлар борки, улар ўйин пайтида, вазиятдан келиб чиққан ҳолда туғилади. Ўйиндан кейин футболчи минг бор уринса ҳам, қайтиб уни амалга оширолмаглиги мумкин. Бунга голландиялик машҳур ҳужумчи Дэнис Бэркамп "Арсенал" клуби шарафини ҳимоя қилаётганда, "Ньюкасл"га қарши амалга оширган ғайритабиий финти ҳалигача кўпчиликнинг ёдида. У рақиб жарима майдончаси ичида жамоадошидан тўпни чап оёқ билан қабул қилиб олган ва коптокни ёнида турган ҳимоячининг ўнг томонидан ўтказиб, ўзи орқасига даярли 360 градусга айланган. Тўпни Бэркамп ўзи билан олиб ўтади, деб ўйлаган, унинг финт ишлатишини кутмаган ҳимоячи аслида тўпсиз айланган Бэркампни тўхташиб қололмайди ва алданади. Ана шу финтдан сўнг киритилган гол ўтган асрнинг энг чиройли голларидан бири, дея тан олингани бежиз эмас.

Бундан ташқари, Диего Марадона, Эрик Контана, Марко ван Бастен, Платини, Зайниддин Зидан, Роберто Бажо, Ривалдо, Роналдо, Тьерри Анри, Рональдиньо, Майкл Оуэн, Хави, Златан Иброҳимович, Криштиану Роналду, Андреас Иньеста, Лионел Мессива Самир Насри сингаридан айланган ажайиб голларга айнан оригинал тарзда амалга оширган финтлари сабаб бўлган, десак янглишмаймиз.

Ўйнолди машғулоти
1. Машқларни бошлашдан олдин тўпсиз ҳаракат қилиш ўринли. Бунда эгилувчанлик, буралувчанлик қобилиятингизни бир бор текшириб олиш мақсадга мувофиқ. Яъни, тонги бадантарбияни қайта бажариб, танани жисмоний машғулотга тайёрлайсиз.

2. Секин югураётиб, бирдан тўхташ амали ва яна олдинга интилиб, тўсатдан гоҳ чапга, гоҳ ўннга, гоҳ ортга бурилиш ҳаракатларини ўзлаштиринг.

3. Ўн-ўн беш кадам олдинга тўғри югуриб келиб, бирдан тўхташ ва шу жойдан яна югуришни давом эттиринг, фақат орқа томонга бурилаётганда белингиз хиёл эгилади. Кейин яна бир бор тўхталиб, ҳаракат давом эттирасиз.

4. Олдинга бир неча тўғри кадам ташлаб, сўнгра оёқлар ҳаракати гоҳ ўннга, гоҳ чапга ўзгартирилади, шунда коптокнинг йўналиши диагональ тарзда илонизи ҳолатини юзага келтиради.



5. Бир кадам диаметрида ҳосил қилинган ҳалқаларни майдон узра ёнма-ён ётқизиб чиқинг. Уларга навбатма-навбат оёқларингизни ташлаб, зудлик билан «илонизи» ҳаракатини ҳосил қилинг. Сўнгра чап томонга ўнг оёқда, ўнг томонга чап оёқда сакраб югуриб, вазифани тўғри адо этинг.

6. Югуриб келиб тўпни ўнг оёқ билан тепмоқчи бўласиз, бироқ сўнги паллада уни тўхташиб, чап оёқда узатасиз-да, ҳаракатни давом эттирасиз. Буни қайчисимон ҳаракат билан амалга оширишингиз ҳам мумкин.

6. Девордан биров узокликда туриб, унга қарата тўпни тепасиз. У қайтиб ерга тушаётганда, гўёки кучли зарб билан тўхтатмасдан тепадигандек ҳаракатланиб, аслида коптокни оёқларингиз билан босиб тўхташиб оласиз. Кейин қулай томонга гавдангизнинг елка қисми билан айланасиз, тўп ҳам оёқларингиз



5-дарс

остида айланиб олдингизга ўтади.

7. Рақибдан ҳимоялана-япман, деб тасаввур қилинг, тўпни олдинга тепиб юборадигандек ҳаракатланиб, аслида коптокни босиб тўхтатасиз, сўнгра 180 градусга қайилиб, қулай шароитда турган шерингизга оширасиз.

Эслатма. Кейин бу машқларнинг барчасини тўп билан такрорланг. Уларни амалга оширишни тўла ўзлаштириб олиш учун ўн марталаб уринишингизга тўғри келади. Бу финтларни муваффақиятли бажаришда гавда, хусусан, елка ва бел ёрдамида рақибдан маълум масофа ҳосил қилиб олиш катта аҳамиятга эга.

Амалий машғулот. Рақиб жарима майдончаси ичига ёриб кириб келдингиз. Қаршингизда ҳимоячи турибди. Ортингиздан эса шерингиз зудлик билан яқинлашиб келяпти, уни кўрдингиз ёки "Ошир!" деган чақиригидан уни ёрдамга шайлигини сездингиз. Биласизми, бундай вақтда 99 фоиз ҳужумчилар дарвозани ўзи ишғол этишни маъқул кўради. Аммо сиз ундай қилмайсиз, балки ўзингизни гўё кучли зарба беришга чоғланаётгандек кўрсатиб, аслида бир-икки алдамчи ҳаракат билан тўпни шерингизга оҳиста оширасиз. Бу пайтда ҳимоячи сизни дарвозага кучли зарба беради, деган хаёлда олдингизга ташланиши аниқ. Қарабсизки, у осонгина алданади ва қулай имкониятга эга бўлган шерингизнинг рўпарасида дарвозани ишғол қилиш учун битта "девор" қолади — дарвозабон.

Сиз финт ишлатишдан олдин унинг нимага (ҳимояга, ҳужумга ёки тўп оширишга) хизмат қилишини яхшилаб тушуниб олинг. Бехуда финт қилишга уриниш кўнглисиз оқибатга олиб келиши мумкин. Финт муҳлислару мутахассисларни ҳайратлантириш учун эмас, кўпроқ жамоага наф келтирадиган мақсадга қаратилган бўлиши зарур.

Амалий машғулот.

Келгуси дарсимизда "ярим жамоа" таърифини олган дарвозабон ўрганиши керак бўлган усуллар ҳақида суҳбатлашамиз. Биласиз, "оёқ тўпи" ўйинида майдон (жарима майдончаси) ичида тўпни қўли билан ушлаш ҳуқуқи фақатгина дарвозабонга берилади.

Копток билан югуриб кетаётиб, бирдан ўзини гўё зарба берадигандек ёки шеригига оширадигандек кўрсатиб, аслида эса тўпни оёқ билан шунчаки босиб тўхтатасиз. Атрофингизда рақиб ҳимоячилари, ёнингизда(орқангизда) келаётган жамоадошингизга тўпни муваффақиятли ошира оли-

шингизга кўзингиз етмаяпти. 2-3 сониядан сўнг яна ҳаракатни ўзингиз давом эттирасиз. Бу вақтда рақиб ҳимоячилари ва дарвозабонда у шеригига тўпни оширади, деган фикрни уйғотолсангиз, улар чалғийди ва аниқ бир томонга ташланади, кейин ҳаракатингизни шунга қараб давом эттирасиз ва яқунлайсиз.

Финт кутганингиздай чиқиши учун жисмонан бақувват бўлишингиз ва мантиқий фикрлаш даражангиз шакланган бўлиши керак. Бунинг учун мактабда геометрия фанини яхшилаб ўқинг. Шунда бразилиялик машҳур футболчи Насименту Пеленинг: "Майдон — текис, тўп — юмалоқ" деган иборасини тўлиқ англаб етасиз. Аниқроғи, тўп тепиш учун бақувват оёқлар талаб этилишидан ҳам олдин ақлни ишлатиш, майдонни ҳис этиш, комбинацияни хаёлан кўра олиш лозимлигини англайсиз.

Футбол четдан жуда оддий ўйиндек туюлса-да, бироқ рақибни "мот" қилиш осон эмас. Шахмат доналарини бир ўйинчи суради, демак, фикр бир калладан чиқади. Футболда эса сиз ўйлаган ўйни шерингиз ҳам идрок этиши ва қўллаб-қувватлаши керак. Бунинг учун эса, табиийки, ўн бир ўйинчи бир тану бир жонга айланиши зарур. Акс ҳолда сизнинг жозибадор финтингиз ҳам, кучли зарбангиз ҳам амалда ҳеч нарсани ҳал қилмаслиги мумкин.



БУГУН ГОЛИБ АНИҚЛАНДИ

Шахмат бўйича машҳур гроссмейстерлар ўртасида Лондонда ўтказилаётган "London Chess Classic" супертурнири тобора ўз яқинига етмоқда. Йилнинг энг шов-шувли мусобақаси дея таърифланаётган мазкур биринчилик бугун ўз ниҳоясига етади.

Турнирни биров омадсиз тарзда бошлаган ҳиндистонлик амалдаги чемпион Вишванатан Ананд мезбонлар вакили Люк Макшейнга қарши дона суриб, жанговар дуранг қайд этди. Америкалик Хикару Накамура эса оқ доначаларда, британиялик фахрий спортчи Найжел Шортни, норвегиялик вундеркинд Магнус Карлсен эса қора доначаларда ўйнаб, яна бир инглиз шахматчиси Дэвид Хауэллни доғда қолдирди. Рус теннисчиси Владимир Крамник англиялик Майк Адамсини енги.

Шундай қилиб, ҳозирда 9 очко тўплаб, Ананд, Карлсен ва Макшейн қўшетақчилик қилишаётган бўлса, Крамник ҳамда Накамурада 8 очко бор.

ЁШ ИҚТИДОРЛАР КАШФИЁТИ

АҚШнинг Флорида штатига қарашли Ки-Бискейн шаҳрида ёшлар ўртасида йилнинг энг нуфузли теннис турнири — "Orange Bowl" бўлиб ўтди.

18 ёшгача бўлган теннисчилар ўртасидаги жуфтлик баҳсларида америкалик Лорен Херринг ва Мэдисон Кисга қарши Маргарита Гаспарян ва украиналик Анна Позни-хиренко кортга чиқди. Уч сет давом этган баҳсда 4:6, 6:0, 8:10 ҳисоби қайд этилди. Шундай қилиб, бош соврин мезбонлар вакилаларига насиб қилди.



"Orange Bowl" турнирининг яқалик матчларида америкалик яна бир ракеткачи Лорен Дэвис ўз ватандоши Грэйс Минни енги, ҳисоб — 6:3, 6:7 (7:9), 6:1.

Ўғил болалар ўртасида ўтказилган баҳсларда эса британиялик Жорж Морган зафар кучди. У голландиялик рақибни Янник Лупескунни мағлуб этди: 6:2, 6:3.

"Orange Bowl" турнири 1947 йилдан буён ҳар йили ўғил ва қиз болалар ўртасида тўртта ёш тоифасида (12, 14, 16 ва 18 ёшгача) ўтказилади. Рожер Федерер ҳамда Жюстин Энен ана шу турнир кашфиётларидир.

"ВАШИНГТОН" ЎЙИНИ БОЙ БЕРДИ

Киш фасли келиши билан аксарият муҳлисларнинг эътибори қор ва музликларда кечувчи спорт турлари билан боглиқ воқеаликларга қаратилади. Миллий хоккей лигаси(МХЛ)нинг мунтазам чемпионатида «Нью-Йорк Рейнджерс» клуби «Вашингтон»ни 7:0 ҳисобида енги.

Шиддатли баҳсларга бой ўтган учрашув Нью-Йорк шаҳрида ўтказилди. Жамоага галаба келтирган шайбаларни рақиб дарвозасига Брэндон Праст (18-дақиқа), Артем Анисимов (21), Мариан Габорик (24), Брэндон Дубински (25), Марк Стаал (31) ва Райан Кэллахэн (45, 54) йўллашга муваффақ бўлди. МХЛда тобора инқироз ботқоғига ботаётган «Вашингтон»нинг қаторасига олтинчи бора мағлубиятга учрашидир.

Қолган учрашувлар ҳам муросасизлик борасида ўзига хос бўлди. Хусусан, «Эдмонтон» клуби ўз уйида «Ванкувер»ни қабул қилди ва ютқазди, ҳисоб — 1:2, «Анахайм» эса мексикони — «Миннесота»га фақатгина икки марта имкон берди, яқуний натижа 6:2 кўринишини олди.

АФРИКАДА КИМ ЗҲҲ?

Кот-д'Ивуарлик Дидье Дрогба, камерунлик Самюэль Это'О ва ганалик Асамоа Гьян номини эшитмаган футбол ихлосмандлари бўлмаса керак. Айнан мана шу футболчилар "қора қитъа"нинг жорий йилдаги энг яхши ўйинчиси номинациясига номзод сифатида кўрсатилган.

Дрогба ("Челси" клуби) 2006 ва 2009 йилларда бу совринни қўлга киритган. У ўтган мавсумда "Челси" сафида Англия чемпиони бўлди, рақиб дарвозасига 29та тўп киритди. Это'О Африканинг уч карра энг яхши футболчиси деб топилган (2003, 2004, 2005 йиллар). Ўтган мавсумда "Интер"да ўйнаб, Италия чемпиони бўлди, мамлакат ва ЕЧЛ кубогини боши узра баланд кўтарди. «Сандерленд» аъзоси

Гьян эса мундиалда миллий терма жамоаси билан чорак финалгача етиб борди.

Голуб номи 20 декабрда қитъадаги 53 мамлакат миллий терма жамоаси мураббийи ва техник директори томонидан берилган овоз натижасига кўра аниқланди.

«Баркамол авлод йили» Давлат дастури доирасида Наманган шахрида Ёшлар маркази фойдаланишга топширилди.

Куйидаги суратларда марказ фаолиятидан лавҳалар акс этган.

Хотам МАМАДАЛИЕВ
(ЎЗА) олган суратлар.



Ёшлар марказининг «Уста ва шогирд» тўғараги ўқитувчиси Гулчехра Холиқова ўқувчилари билан.



Ёшларнинг хорижий тилларни пухта ўрганиши учун барча шароитлар муҳайё.



Муסיқа тўғарагида ёшлар жаҳон муסיқа асарлари ижросини ҳам ўрганмоқдалар.



Миллий чолғу асбоблари тўғараги аъзолари машғулот пайтида.



Марказда янги оила қураётган ёшларнинг никоҳини қайд этиш ва соғлом ҳаёт асослари бўлимлари фаолият олиб бормоқда.



Рақс тўғараги аъзолари ижросидаги жозибали рақслар сизга хуш кайфият улашади.

Ma'rifat

**ТА'СИС
ЕТУВЧИЛАР:**

Ўзбекистон Халқ та'лими
вазирлиги, Ўзбекистон Олий
ва о'рта maxsus та'лим
вазирлиги, Ўзбекистон
Та'лим ва фан ходимлари
касба uyushmasi
Markaziy Kengashi.

Bosh muharrir:
Abdusamat RAHIMOV

Tahrir hay'ati: Jumanazar BEK-
NAZAROV, Baxtiyor DONIYOROV,
Bahodir JOVLIYEV (bosh muharrirning
birinchi o'rinbosari), Akmal ISLOMOV
(mas'ul kotib), Mahmuda MURZAYEVA,
Husan NISHONOV (bosh muharrir
o'rinbosari), Ulug'bek TOSHKENBOYEV,
Nurlan USMONOV (bosh muharrir
o'rinbosari, "Учитель Узбекистана"),
Aleksy CHUKARIN (mas'ul kotib, "Учи-
тель Узбекистана"), Sa'dulla HAKIMOV

Gazeta
Ўзбекистон Matbuot
va axborot agentligida
№ 0067 raqam bilan
ro'yxatga olingan.

INDEKS: 149, 150. G-1122.
Tiraji 26533.
Hajmi 4 bosma taboq.
Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3.

Navbatchi muharrir:
Qurbonboy
MATQURBONOV.
Navbatchi:
Sherali NAMOZOV

«Ma'rifat» dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga oshirilishi sharti. Tahririyatga yuborilgan
materiallar muallifga qaytarilmaydi.
belgisi ostida reklama materiallari beriladi.

MANZILIMIZ: 100083, Toshkent,
Matbuotchilar ko'chasi, 32.

E-mail: info@marifat.uz
Web-site: www.marifat.uz

TELEFONLAR: mas'ul kotib—233-99-15, umumiy o'rta
va maktabgacha ta'lim yangiliklari bo'limi — 236-53-16, fan,
o'liy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yangiliklari bo'limi
— 236-54-03, adabiyot, madaniyat, kasaba uyushmalari hayoti
yangiliklari bo'limi — 236-54-69, ma'naviyat va maktabdan
tashqari ta'lim yangiliklari bo'limi — 236-54-23, siyosat,
xalqaro hayot va sport yangiliklari bo'limi — 236-55-58,
reklama va marketing bo'limi — 233-42-92(faks), 236-54-17.

Bahosi sotuvda
erkin narxda

Dizaynerlar
Liliya BINASHEVA,
Malohat TOSHOVA.

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksionerlik kompaniyasi
bosmaxonasi.

Korxonaning manzili: «Buyuk Turon»
ko'chasi, 41-uy

Bosishga topshirish
vaqti — 21.00.
Topshirildi — 21.20
ЎЗА йқупи — 20.50